

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan ●2023-yil 20-oktabr, №42 (3052)



BIZ
HAQIMIZDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

@vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya



CHO'QQIDA
TOBLANGAN MATONAT


4-5



**"KALIBR": ENG MOHIR
OVCHILAR ANIQLANDI**

8-9

**HAR BIRINGIZ
BIR BUTUN
LASHKAR**



**TAEKVONDODILARI
YANA MUVAFFAQIYAT
QOZONDI**



18

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING "BIR MAKON, BIR YO'L" UCHINCHI XALQARO FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli Guterrish janoblari!
Hurmatli Xan Chjen janoblari!
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Xonimlar va janoblari!

Avvalo, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin janoblariga "Bir makon, bir yo'l" uchinchchi xalqaro forumida ishtirok etishga taklif qilgani hamda iliq qabul uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

"Makon va yo'l" tashabbusining o'n yilligi munosabati bilan xitoylik do'stlarimiz hamda tadbirning barcha ishtirokchilar nomiga bildirilgan tabrik so'zlariga qo'shilaman.

Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashga qaratilgan ulug'vor g'oya tarixan qisqa davrda ko'plab tarafdarlariga ega bo'ldi va xalqaro hamkorlikning yangi modeliga aylandi. U umumi taraqqiyot va farovonlikka erishish yo'lidagi zaruriy, inklyuziv va ochiq platformaga aylandi.

Jahondagi yetakchi davlatlar o'tasidagi o'zaro ishonch inqirozi tufayli vujudga kelgan hozirgi geosiyosiy beqarorlik sharoitida ushbu dasturning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Xitoyning har tomonlama strategik sheri sifatida O'zbekiston birinchilardan bo'lib "Makon va yo'l" tashabbusini qo'llab-quvvatlaganini alohida ta'kidlashni istardim. Biz mazkur tashabbusning asosiy maqsad va vazifalarini yanada ilgari surishning qat'iy tarafdomiz.

Hurmatli forum ishtirokchilar!

Xitoyning "Yashil Ipak yo'l" tashabbusi mohiyat e'tibori bilan umumi "yashil" kelajak kun tartibini shakkantiradi, deb hisoblaymiz. Ushbu g'oya Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin janoblari tomonidan ilk bor 2016-yilda aynan bizning mamlakatimizda e'lon qilingani chuqur ramziy ma'noga ega.

O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o'zgarishi oqibatlardan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biri ekanini ta'kidlamoqchiman.

Hozirgi vaqtida bizning mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari, yerkarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va

cho'llanishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi ko'rinishida namoyon bo'layotgan jiddi takhidilarini o'zida to'liq his etmoqda.

Birgina misol – ko'p yillik kuzatishlar bugungi kunda Markaziy Osiyoda o'rtacha havo haroratining oshib borishi dunyodagi umumiy ko'rsatkichlardan ikki marta yuqori ekanini ko'rsatmoqda.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida qabul qilingan maxsus rezolyutsiya doirasida Orolbo'yida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududlarini yaratish bo'yicha keng ko'lami dasturni amalga oshirmoqdamiz.

O'zbekiston joriy yilning sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusiga ko'ra bo'lib o'tgan Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ulkan vazifalar sammitini ham yuqori baholaydi hamda mazkur anjuman yakunlarining tezroq amalga oshirilishiga umid bildiradi.

Biz 2024-yil Markaziy Osiyoda "yashil" taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishish yo'lida fikr almashish va sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun Samarqand xalqaro iqlim forumini o'tkazish niyatidamiz.

Umid qilamizki, ushbu forum barqaror rivojlansh yo'lidagi global xavf-xatarlarga javob topish uchun "Kelajak uchun – Samarqand muloqoti"ni tashkil etishda amaliy qadam bo'lib xizmat qiladi.

Hurmatli sammit ishtirokchilar!

O'zbekiston "Yashil Ipak yo'l" doirasida keng ko'lami xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor.

Shu munosabat bilan Xitoy hamda "Makon va yo'l" sammitining boshqa ishtirokchilar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha fikrlerimiz bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Birinchidan, birlgalidagi sa'y-harakatlarimizni yanada yaqindan muvoqqlashtirish maqsadida "Markaziy Osiyoning "yashil" kun tartibi" va "Yashil Ipak yo'l" konseptual tashabbuslarining o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi tarafdomiz.

Quyidagi muhim vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida keng

ko'lamdag "Yashil" taraqqiyot dasturi"ni ishlab chiqishni taklif etamiz: iqtisodiyot tarmoqlarini "yashil" taraqqiyot talablarini asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport va energetika tarmoqlarida barqaror infratuzilmani yaratish, "yashil" sanoat quvvatlarini ishga tushirish, kambag'allikni qisqartirish va "aqli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish.

Ikkinchidan, "yashil" ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarini rivojlantirish sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirishni muhim, deb hisoblaymiz.

Xitoyning yetakchi kompaniyalari bilan birlgalikda va boshqa xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, "yashil texnologiyalar"ni keng joriy qilish asosida sanoat sohasida va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dasturlarni amalga oshirish uchun Orolbo'yini mintaqasida Maxsus namunali texnologik parkni tashkil etishga tayyormiz.

Uchinchidan, Xitoyning "Makon va yo'l" dasturining "yashil" investitsiyalar tamoyillari" borasidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va uni amalga oshirishda ishtirok etish niyatidamiz.

O'zbekistonda "Yashil" moliyalashtirish jamg'armasini ta'sis etishni taklif qilamiz. Ushbu jamg'arma kam uglerodli iqtisodiyot va "toza" texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek mintaqalarda mamlakatlarida yuqori ekologik standartlarni joriy etish uchun moliyaviy resurslarni safarbar qilishning ta'sirchan vositasiga aylanadi.

To'rtinchidan, biz "Makon va yo'l" dasturida ishtirok etayotgan mamlakatlarni "yashil" mahsulotlar, ayniqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'zaro savdosidagi cheklari va to'siqlarni kamaytirishga chaqiramiz.

Beshinchidan, "yashil" energiyaga o'tish bo'yicha muloqotni faollashtirish va "Makon va yo'l" tashabbusiga qo'shilgan mamlakatlar vazirlarining mutazam uchrashuvlarini o'tkazishni muhim, deb bilamiz.

Aminmizki, bu qayta tiklanadigan energiya sohasida xalqaro kun tartibini kengaytirish bo'yicha o'zaro muvoqqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Oltinchidan, Orolbo'yni xalqaro innovatsiyalar markazi negizida "yashil" bilim va yechimlarni transfer qilish bo'yicha ilmiy-axborot platformasini ishga tushirishni taklif etamiz.

Yettingchidan, biz Markaziy Osioyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti negizida "Yashil" taraqqiyot va ekoliya sohasida mutaxassislar tayyorlash va akademik almasuvni rivojlantirish bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish tarafdomiz.

Bu borada Xitoy hamda "Makon va yo'l" tashabbusining boshqa ishtirokchi mamlakatlari yetakchi oliyohlari va ta'lim markazlari bizning sheriklarimiz sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Va nihoyat, biz jamiyatda tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish bo'yicha an'anaviy qadriyatlarni qaror toptirmasdan turib, "yashil" taraqqiyotga o'tish mumkin emas, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusni doirasida "yashil" madaniyatni rivojlantirish bo'yicha Global dasturni ishga tushirishni va unda etno-ekologik festivallar, forumlar, mamlakatlarimizdagi taniqli jamaot arboblari, fan, biznes va madaniyat namoyandalari ishtirokida taqdimotlar va tadirlarni o'tkazishni nazarda tutishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblari!

Donishmand xitoy xalqining maqolida aytilganidek, "**Kelgusi asrning baxti ushbu asrda quriladi**".

Bugun biz sa'y-harakatlarimizni birlashtirgan va kuchaytirgan holda, insoniyatning "yashil" kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratmoqdamiz.

Ishonchim komilki, bugungi uchrashuvimiz yakunlari, bildirilgan g'oya va takliflar bizning ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lidagi umumiyan aniq hissamiz bo'ladi.

Barchangizga muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI «STATE GRID» YIRIK ENERGETIKA XOLDINGI RAISI BILAN UCHRASHDI

Pekin shahriga amaliy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'ziga ajratilgan qarorgohda "State Grid" kompaniyasi raisi Sin Baoanni qabul qildi.

Xitoyning elektr tarmoqlari korporatsiyasi ushbu sohadagi global yetakchi bo'lib, Fortune Global 500 reytingida yuqori o'rnlarni egallab kelmoqda.

Kompaniya elektr uzatish tarmoqlarini barpo etish va ularni ekspluatatsiya qilish bo'yicha keng ko'lami loyihalarni amalga oshirish borasida, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarda katta tajribaga ega. Aktivlari qiymati 800 milliard dollar atrofida.

Ushbu kompaniya ishtirokida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish,

jumladan, yuqori voltli elektr uzatish liniyalarini qurish va infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, bunda ilg'or injiniring yechimlari va yuksak texnologiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimiz energetika tarmog'i uchun yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

Qo'shma loyihalarni jadallashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI XALQ SIYOSIY MASLAHAT KENGASHI BUTUNXITOY QO'MITASI RAISI BILAN UCHRASHDI

Xitoyga tashrif tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi Raisi Van Xunin bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbatda Xitoy tomoni davlatimiz rahbari "Makon va yo'l" uchinchchi xalqaro forumida ilgari surgan muhim tashabbuslarni yuksak baholadi va buning uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston-Xitoy do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash istiqbollari muhokama qilindi.

Konstruktiv siyosiy muloqotning bugungi darajasi va xalqaro tashkilotlar doirasidagi o'zaro ko'mak alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Samarqand va Sian shaharlari o'tgan sammitlar davomida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilmoqda.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik ijobji sur'at bilan rivojlanib bormoqda. Hududlar o'tasidagi aloqalar faollashdi. Oxirgi oyлarda O'zbekistonga Shinjon-Uyg'ur avtonom hududi, Shandun, Shensi, Szyansu va Szyansi muzofotlari delegatsiyalarini tashrif buyurdi.

Madaniy-gumanitar aloqalar va ta'limga almasuvni faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.



QIMMATLI BILIMLAR SARI

Mudofaa vazirligi mas'ullari hamda harbiy okrug qo'mondonlarining o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi diplomatik akademiyasida tashkil etilgan "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati asoslari. Diplomatik protokol, etiket va munozaralar jarayoni" kursida malaka oshirdi.

Markaziy Osiyoning zamonaviy muammolari, O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslari va xalqaro shartnomalarning qonunchilik bazasi kabi mavzular bo'yicha bilimlarini oshirdilar.

– Diplomiya har bir soha vakili o'zlashtirishi kerak bo'lgan soha, shu jumladan harbiy xizmatchilar uchun ham, – deydi kurs tinglovchisi podpolkovnik Fayzulla Shermatov. – Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bizning davlatchiligimiz ko'p asrlik tarixga ega. Shuning uchun diplomatik munosabatlar ham tariximizning eng chuqr qatlamlariga borib taqaladi. Bu haqiqatni dunyo olimlari ham e'tirof etadi. Dunyodagi diplomatiyaga oid eng zo'r kitoblar ham aslida Sharqda, jumladan bizning zaminimizda yaratilgan, desak, adashmaymiz. Biz kurs davomida bu haqda ham qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldik. O'rganganlarimiz keyingi xizmat faoliyatimizda asqatishi bizning eng katta yutug'imiz bo'ladi.

Yetmish ikki soatga mo'ljallangan kurs nihoyasida tinglovchilar sertifikat bilan taqdirlandi.



Kurs davomida tinglovchilar akademianing professor-o'qituvchilaridan O'zbekistonning yangilangan Tashqi siyosat konsepsiysi va mamlakatimiz

diplomatiyasining asosiy ustuvor yo'naliishlari, notiqlik, ritorika, diplomatik protokol va etiket, diplomatik yozishmalar, muzokaralar jarayonida tashkiliy ish va

samaradorlikka erishish, diplomatiyada tahliliy ish, jahon siyosatidagi zamonaviy tendensiylar va qarama-qarshiliklar, xalqaro arenadagi geosiyosiy jarayonlar,

Podpolkovnik Gulnora HOJIMURODOVA

HARBIY-VATANPARVARLIK

QO'MONDON OLIS HUDUD YOSHLARI BILAN UCHRASHDI

Jizzax viloyatining eng olis hududi, qo'shni Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan Yangiobod tumanida Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev ishtirokida "Qo'mondon va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi.

va festivallar o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi. Eng ahamiyatlisi Harbiy-vatanparvarlik festivalini tumanning olis hududi – Sarmich mahallasidan boshlab o'tkazishga kelishib olindi.

Uchrashuv davomida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatiga a'zo bo'lgan 100 nafar yoshga ko'krak nishonlari ham topshirildi.

Uchrashuvdan so'ng, tuman yoshlari uchun harbiy-vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi. Undan harbiy



Tumandagi sektor rahbarlari hamrohligida o'tgan uchrashuv yoshlarga berilayotgan e'tibor, imtiyoz va imkoniyatlardan keng foydalanish va milliy armiyamiz saflarida xizmat qilish istaklarini yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Uchrashuvda qo'mondon so'zga chiqib, Qurolli Kuchlarimiz saflarida


xizmat qilish va oliy harbiy ta'llim muassasalarida tahsil olish to'g'risida bergan ma'lumotlari yoshlarning yurt himoyachisi bo'lish, Vatanga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilish kabi hislarni uyg'otdi. Bundan tashqari, uchrashuv davomida yoshlarning harbiy va turli sohadagi qiziqishlariga oid savol va murojaatlari

atroflichcha o'rganib chiqilib, tegishli mutaxassislar tomonidan to'liq tushunchalar berib o'tildi.

Tuman hokimligi bilan hamkorlikda olis hudud yoshlarini harbiy qismlarga taklif etib, ularga milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar xususida ma'lumotlar berish, ular o'rtasida turli harbiy sport musobaqalari

xizmatchilarning qo'l jangi, Faxriy qorovulning saf chiqishlari, harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi hamda harbiy orkestr jamoalarining ona Vatanni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlari o'rini oldi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati



Chimyondagi tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazi. Ijodiy guruh bilan borganimizda tog' cho'qqilari allaqachon oppoq qordan oqargan, uning sovuq tafti quyoshning erinchoq nurlariga qo'shilib, atrofga o'zgacha harorat berardi.

Markazda erta tongdanoq ishlar qizigandan qizyidi. Shaxsiy tarkib kerakli anjomlar bilan qurollanib, tog' tayyorgarligi mashg'ulotlariaga kirishadi. **Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi (tog' tayyorgarligi bo'yicha) katta inspektori podpolkovnik Zokir Yallakayev boshchiligidagi** biz ham mashg'ulotlar jarayonini kuzatdik.

Darvoqe, o'sha kuni

anjomlaridan oqilona foydalanish shartlarini batafsil tushuntirib berdi.

Albatta, tik qiyaliklar oralab harakatlanshining o'zi bo'lmaydi. Bunda harbiy xizmatchilarning joniga faqtgina otlar ora kirishi mumkin. **Kichik serjant Shavkat Botirov otlar bo'yicha yaxshigina mutaxassis ekan.**

– Tog'da otlarni sog'lom saqlash va doimiy mashg'ulotlarga jalb qilishda

CHO'QQIDA

Markazda bayramona tadbir ham tashkillashtirilgan ekan. O'zbek alpinistlari orasida katta hurmatga ega bo'lgan shaxs, **O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlар murabbiysi Ikrom Nazarov ayni damda 90 yoshni qarshiladi.** Shu munosabat bilan tushga yaqin "Uch avlod uchrashuv" tadbiri ham o'tkazilar ekan. Ustoz bugungi kunda ham ushbu markazda faoliyat yuritib, tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlarida harbiy xizmatchilarga o'zining qimmatli maslahatlarini berib keladi. Bizga Ikrom Nazarovning shaxsan o'zi hamrohlik qilgani qo'l keldi. Tajribali murabbiy hamon shogirdlarining xatti-harakatini diqqat bilan kuzatadi, xato va kamchiliklarini aytadi, yutuqlarini e'tirof etadi.

Birinchi o'quv nuqtasida katta yo'riqchi serjant Karimjon Muhiddinov shaxsiy tarkib bilan guruhnинг jangovar vazifalarni bajarish chog'idagi to'siqlar, tog', daryolardan o'tish mashqlarni olib borayotgan ekan. U o'z guruhiга xavfsizlik qoidalariga to'liq amal qilish, chaqqonlik, tog'

ularga ko'rsatiladigan e'tibor juda muhim, – deydi biz bilan suhbatda u. – Avvalo otlarni vaqtida oziqlantirish, faqat va faqat ularning badani sovigandagina faoliyatga jalb qilish lozim. Masalaning nozik tomoni ham shunda. Otlar 30–40 kun mobaynida sovitilib boriladi. Bunda oziqlanish, kunlik masofalarni maksimal bosib o'tishini nazoratda ushlash kerak. Aks holda ular tez kasallikka chalinib qolishi mumkin...

Otlar bilan kechadigan tibbiy muolajalarga ham o'sha yerning o'zida guvoh bo'ldik.

Keyingi nuqtada Markazning **harbiy alpinizm bo'yicha katta yo'riqchisi kichik serjant Husniddin Xiziraliyev** qo'l ostidagi guruh qoyalii yo'nalishlar va jarliklarda qolgan harbiy xizmatchilarni qutqarish bo'yicha mashg'ulotlar olib borayotgan ekan.

– Biz ayni damda tog'li yo'nalishlarda jarohat olgan yaradirlarni yakka tartibda qoyaga olib chiqish va olib tushish kabi o'quv savollarini ko'rib chiqmoqdamiz, – deydi yo'riqchi biz bilan suhbatda.



TOBLANGAN MATONAT

– Qoyaga tirmashib chiqishda har bir bosgan qadamingiz juda muhim. Qoyalarning mustahkam va ko'chuvchan turlari borligini hisobga olsak, bиринчи navbatda, toshlarning mikrorelyeflarini aniqlanadi. Har bir toshning qoya bolg'asi yordamida sinchiklab tekshirilishi, qoya qoziqlarining mustahkam qoqlishi guruhning xavfsizligini ta'minlaydi.

Jarayonga bevosita o'z tavsiyalarini berib borayotgan alpinist Ikrom Nazarovni kuzata turib, ulkan tajriba har qadamda o'z so'zini aytishiga amin bo'ldik. U soha bo'yicha elikka yaqin dasturlar, o'quv qo'llanmalari, xususan, "Tog' tayyorgarligi" kitobi, "Tog' mashg'ulotlari – tog' bo'linmalarining jangovar samaradorligini oshirishning konstruktiv yo'nalishi sifatida" kabi monografiyalar; "Tog' to'siqlarini yengib o'tishga o'rgatish" kabi o'nlab darsliklar muallifidir.

U harbiy xizmatchilar doimo ekstrimal vaziyatlarga tayyor turishi shart ekanini ta'kidlashdan charchamaydi. O'z faoliyati misolida

ko'plab qiyin holatlarga qanday yechim topilganligini voqealar asosida keltirib o'tadi.

– Tog' sharoitida imkon boricha tevarak-atrofni o'zgartirmaslikka, biror joyda bo'lganligingizga ishora qiluvchi izlarni qoldirmaslikka harakat qiling, – deydi u. – Hid qoldirmaslik, tuzoqlarga imkon boricha qo'l bilan tegmaslik, doim qo'lqoplardan foydalanish, daraxtlarning yangi kesilgan joyini loy bilan suvab qo'yish – bir so'z bilan aytganda, har qadamda hushyor yurish zarur, – deydi u.

Markazda bu kabi qoidalarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan: o'simliklar bo'Imagan va atrofida hayvonlar suyaklari yotgan suv havzasi sizni biroz hushyor torttirishi lozim. Chunki bu alomatlar suvning zaharlanganidan dalolat beradi. Cho'llarda turg'un suvli ko'llar sho'r bo'lib ketadi va ulardagi suvni iste'mol qilishdan oldin, albatta tozalash usullaridan foydalanishni unutmang!

Shu zaylda kuzatuvlarimiz "Uch avlod uchrashuvi" tadbiriga ulandi. Podpolkovnik Zokir Yallakayev

boshchiligidagi mahalla faollari, harbiy xizmatchilar, tog' tayyorgarligi mutaxassislar, maktab o'quvchilari ishtirokida qizg'in davra suhbat o'zbek armiyasining shonli tarixiga bevosita guvoh bo'lgan, yuzlab shogirdlar tarbiyalagan, "tog' taktikasi" tushunchasini harbiy faoliyatga olib kirgan tajribali murabbiy bilan o'zaro savol-javoblar asnosida kechdi.

Chindan ham tog'lar bilan aka-uka tutingan bu insонning tarjimayi holi o'ziga xos. U 1933-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1965-yilda Toshkent Davlat universitetining geografiya fakultetini geograf, gelyatsiolog, alpinist va harbiy alpinist mutaxassisliklari bo'yicha tamomlagan. Alpinizm bo'yicha 1-toifali metodist-instruktor.

O'quvchilarga bu haqda so'zlar ekan, 1952-yilda Tyan-Shan va Pomir tizmalarini kezib chiqqani, 7 000 metrlik cho'qqilarni zabt etgani, 2 yil davomida 5 000 metr balandlikdagi Fedchenko muzligida qishlagani ularga go'yoki ertak bo'lib eshitilayotganday edi. Alpinist haliyam

yoshlarga o'z ko'rganlarini soddaroq tilda tushuntirdi. U bir vaqtlar Elbrusni ikki marta zabt etgan, Pobeda cho'qqisi hududiga tashrif buyurgan, ko'plab ilmiy, harbiy sport, o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi, xalqaro ekspeditsiyalarda ham ishtirok etgan.

Uning shogirdlari tajribali ustozning gelyatsiologiya, sport va amaliiy alpinizm yo'nalishida olib borgan ilmiy va nazariy tadqiqotlari komandirlar, kursantlar va yosh harbiy alpinistlarga tog' to'siqlarini yengib o'tishda muhim manba bo'lib xizmat qilayotganini tez-tez tilga olishadi.

Tajribali murabbiy turli savollarga hayajon bilan javob berar ekan, so'zi yakunida **O'zbekiston tog'larini jonidan ham ortiq sevishini, mag'rur cho'qqilarga bo'lgan kuchli muhabbati tufayli hamon Vatan xizmatida ekanini** to'qinlanib so'zladi.

Tadbir taassurotlari barchamizga unutilmas voqealar zavqini ulashdi.

Katta leytenant
Bobur ELMURODOV,
«Vatanparvar»

"ENG ILG'OR"



"Yangiariq" umumqo'shin poligoni bazasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinarining umumqo'shin batalyonlari yo'nalishida "Eng ilg'or batalyon" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.



Urganch garnizonidagi jangovar batalyon ishtirokida boshlangan ko'rik-tanlovnинг ushbu yo'nalishida bu yil 7 ta batalyon g'oliblik uchun da'vogarlik qiladi. Joriy yilgi bellashuv eng kuchli va ahil harbiy jamoani aniqlash, jangovar hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi yuksak bo'linmalarini rag'batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Mudofaa vazirligi qo'shinarida "Batalyon taktik guruhlari jangovar tayyorgarligi yili" shiori ostida bo'lib o'tayotgan sinovlar bo'linmalarning saf hamda o'quv-moddiy bazalari ko'rige, qurol-aslaha va harbiy texnikalarning holatini tekshirishdan boshlandi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida batalyon taktik guruhlarning jangovar salohiyati va qobiliyatini yuksaltirish, bo'linmalarning mo'ljallanishi bo'yicha jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlash, shaxsiy tarkibning jangovar hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida egallagan bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida qo'shnlarda "Eng ilg'or batalyon" ko'rik-tanlovi an'anaviy tarzda o'tkazib kelinadi.

Mazkur ko'rik-tanlov uch bosqichni o'z ichiga olgan bo'lib, birinchisi qo'shilma miqyosida, ikkinchisi harbiy okrug va yakuniy bosqichi vazirlig miqyosida o'tkazilishi belgilangan.



Batalyon shaxsiy tarkibining jangovar tayyorgarligi, jismoniy va ruhiy yuklamalarni sabot bilan yengishi, jangovar vazifalarini bajarishga shayligini tekshirish maqsadida Mudofaa vazirligi markaziy apparati ofitserlaridan iborat hay'at a'zolari mamlakatimiz hududi bo'ylab joylashgan har bir jangovar bo'linmadan o'z hududidagi jangovar obyektlar hamda umumqo'shin poligonlarida nizom va rahbariy hujjatlar talablari asosida sinovlar qabul qilmoqda.

E'tiborli, Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan quyi pog'onadagi guruh, vzvod va batalyonlarga bo'lgan alohida e'tibor sabab, bugun ushbu bo'linmalarning ta'monoti, jangovar tayyorgarligi hamda shayligi yuksalishiga erishilyapti. Batalyonlarda sog'lom raqobat muhiti yanada shakllantirilib, bo'linma komandirlarining liderlik va boshqaruvchanlik qobiliyati oshib bormoqda.

Ko'rik-tanlovdan bo'linmalarning saf ko'rige, qurol-aslaha va texnikalarning holati hamda saqlanishi, o'quv-moddiy bazalarning butligi, batalyonning jangovar vazifalarni bajarishga shayligi, bo'linmaning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi,

BATALYON'LAR SARALANDI



tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, harbiy intizom hamda huquq-tartibot holati sinchkovlik bilan nazoratdan o'tkazildi.

Musobaqa "Yangiariq" umumqo'shin poligonida o'tkazilib, batalyon olingen tezkor vazifaga muvofiq, jangovar va harbiy texnikalarda belgilangan joyga marsh yurishni amalga oshirib, yo'lda ehtimolli dushman hujumlari, pistirma hamda boshqa nostandard holatlarni bo'y sunuvdag'i kuch va vositalar bilan bartaraf etdi. Shundan so'ng bo'linmalar joyda joylashuv, aloqa, qo'riqlovni tashkil etishni amalda namoyish qildi.

Dala-o'quv maydoni hududida bo'linmalar tomonidan guruh tarkibida o'qotar va zirqli transportyor qurollardan har xil holatlardan amaliy o'q otish mashqini bajarishi, taktik hamda topografik vazifalarni ado etishi, jangovar va harbiy texnikalarni boshqarishi, jismoniy tayyorgarlik me'yorlarini bajarishi hamda mutaxassislik bo'yicha savollarga aniq javob berishi belgilangan edi. Amaliy mashg'ulotlar kunduzi va tungi sharoitlarda bajarilib, harbiy xizmatchilarning ko'nikmalari murakkab sinovlarda baholab borildi.

Ishtirokchilar taktik, otish, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy tayyorgarliklarini amalda namoyon etish orqali batalyonning jangovar shayligini ko'rsatib berishdi.

Ko'rik-tanlov nizomida
q a y d e t i l g a n i d e k ,
bo'linmalar me'yorlarni
bajarganlik uchun
q o ' s h i m c h a

rag'batlantiruvchi ballar bilan taqdirlanishi va aksincha yig'ilgan ballardan mahrum bo'lishi ham mumkin. E'tiborlisi, ko'rik-tanlov nizomiga asosan malaka toifasiga ega bo'lganlar, davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar hamda mamlakat, Qurolli Kuchlar va Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan musobaqa hamda bellashuvlarda yuqori natijalarga erishganlarga alohida qo'shimcha ballar qo'shilishi belgilangan.

Ishtirokchilar tomonidan mazkur musobaqa o'zining murakkabligi, shaffof va xolisligi bilan boshqalardan tubdan farq qilishi e'tirof etildi. Zero Vatan himoyachisi degan sharaflı nomga sazovor bo'lish uchun harbiy xizmatchilar og'ir, mashaqqatlari mashqlarda toblanishi, har qanday sharoitda o'ziga yuklatilgan jangovar vazifalarni bajarishga shay turishi shart.

Eslatib o'tamiz, ko'rik-tanlovda g'olib bo'lgan batalyon komandirlarini taqdirlash marosimi O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri tomonidan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bayramida amalga oshiriladi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i**



“KALIBR”: ENG MOHIR



“Kalibr” uzoq masofalarga o‘q otish klubi mudosaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti, O‘zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasi hamda Mudofaa vazirligi tomonidan imzolangan o‘zaro hamkorlik memorandumiga asosan ta’sis etilgan. Klubning tashkil etilganiga hali ko‘p vaqt bo‘lgan bo‘lmasa-da, uning faoliyati ancha sermazmun kechmoqda.

Klub “Vatanparvar” tashkilotining Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi qoshida tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi ov va uzoq masofalarga o‘q otish sporti havaskorlari, O‘zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasi bilan hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or tajriba almashish hamda respublika hududida uzoq masofalarga o‘q otishni ommalashtirish hisoblanadi.

Xabaringiz bor, joriy yilda “Kalibr” klubi a’zolari o’rtasida ilk bor “Eng

mohir ovchi” respublika musobaqasiga start berilib, viloyatlar bosqichida bahslarga kirishgan, o‘z mahoratini ko‘rsatgan ovchilar jamoalari respublika yo’llanmasini qo‘iga kiritgan edi. Ana shu jamoalar Toshkent harbiy okrugi “Chirchiq” dala-o‘quv maydonida ikki kun davomida respublika birinchiligi uchun kuch sinashdi.

Unda Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi boshlig‘i polkovnik Rahmatillo





OVCHILAR ANIQLANDI



Rahmonov, Toshkent harbiy okrugi mas'ul ofitserlari, Merganlar tayyorlash markazi mutaxassislari, "Kalibr" klubi a'zolari va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Qatnashuvchilar TOZ-8 va menganlik miltig'idan turli masofadagi nishonlarni yo'q qilish bo'yicha o'zarो bellashdi. Jamoalarning qiziqishi va g'alabaga bo'lgan intilishi ularning musobaqaga jiddiy tayyorgarlik ko'rganidan ham dalolat berib turibdi. Darhaqiqat, bugungi kunda Mudofaa vazirligi tomonidan respublikamiz hududida ovchilar bilan amaliy mashg'ulotlar tashkil etish uchun 13 ta poligonda maxsus joylar jihozlangan. Ular uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, mashg'ulotlar muntazamligiga erishilgan.

Shunday qilib, murosasiz va qizg'in bellashuvlarga boy bo'lgan musobaqaning yakuniy natijalarini quyidagicha bo'ldi (*alohida nominatsiyalar bo'yicha*):

- silliq stvollli qurollardan skit mashqini bajarish – Husenboy Bekchanov (*Xorazm viloyati*);

- TOZ-8 quroldan biatlon mashqini bajarish – Murodjon Turopov (*Surxondaryo viloyati*);

- narezli qurollardan o'rta masofaga tezlik bilan otish mashqini bajarish – Baxtiyor Dadayev (*Sirdaryo viloyati*)

Musobaqaning barcha shartlari bo'yicha umumjamoa hisobida 3-o'rinni Surxondaryo viloyati, 2-o'rinni Toshkent viloyati egallagan bo'lsa, faxrli 1-o'rinni Xorazm viloyati jamoasi qo'lga kiritdi.

G'oliblar diplom, kubok va qimmatbaho sovg'alar, shuningdek mudofaa vazirining esdalik nishonlari bilan taqdirlandi. Tantanali marosimda so'zga chiqqanlar ushbu musobaqaning ahamiyati, harbiylar va ovchilar hamkorligining istiqbollari hamda kelgusida uni muntazam ravishda rivojlantirib borish masalalariga to'xtalib o'tdi.

Katta leytenant
Islomjon QO'CHQOROV,
«Vatanparvar»

Millat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar tilda o'z aksini topadi. Til yo'qolsa, millat ham tanazzulga yuz tutadi. Jadid bobokalonimiz Abdulla Avloniyning ushbu gapi fikrimizga dalil bo'ladi: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir".

TILLAR QANDAY TANAZZULGA YUZ TUTADI ?

BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda mavjud tillarning yarmi XXI asr oxiriga borib, butunlay yo'q bo'lib ketish xavfi ostida ekan, bu esa butun insoniyat uchun tuzatib bo'lmaydigan yo'qotish bo'lishi mumkin. Shu bois YUNESKO 2001-yildan yo'qolib borayotgan tillarni aniqlash, ularni saqlab qolish choralari bilan shug'ullanishni boshladi.

Yer yuzida 6 000 ga yaqin til bor bo'lsa, mavjud tillarning yarmida 10 000 nafardan kam, choraktasida esa 1 000 nafardan kam odam gaplashadi. Avstraliyalik aborigen tillari va amerikalik hindu tillarining ko'pidi so'zlovchilar nisbatan ancha kam. Amazon havzasidagi har bir tilda o'rtacha 150 kishi so'zlashadi. Dunyo tillarining yarmi faqat 8 ta davlatda joylashgan: Papua Yangi Gvineya (832 til), Indoneziya (731 til), Nigeriya (515 til), Hindiston (400 til), Meksika (295 til), Kamerun (286 til), Avstraliya (268 til) va Braziliya (234 til). Agar Yevropada 50 ga yaqin til mavjud bo'lsa, Yangi Gvineyada bu raqam atigi 6 million kishilik aholi bilan 2 000 ga yaqinlashadi.

Tillar tug'iladi, yashaydi va rivojanadi, kengayadi, tarqaladi yoki aksincha so'nadi. Taxmin qilinishicha, hammasi bo'lib 30 000 ga yaqin tillar hozirgacha hech qanaqa iz qoldirmasdan yo'q bo'lib ketgan. Rim istilosi o'nlab tillarning yo'qolishiga sabab bo'ldi, ularning o'rnni lotin tili egalladi. Ispaniya istlochilar kelishidan oldin, Inka imperiyasining kengayishi va keyinchalik ispan missionerlari tomonidan kechua tilidan foydalaniishi natijasida And tog'larida o'nlab tillar yo'q qilindi. Braziliyada 1530-yili Portugaliya mustamlakasi boshlanganidan beri mavjud tillarning to'rtdan uch qismi yo'qolgan. Meksikada yo'q bo'lib

ketgan tillar soni ma'lum emas, ammo mustamlakachilikning birinchi o'n yilliklarda mahalliy aholining 90 foizi qirilib ketishi natijasida tillar ham yo'qolgan.

Tillarning o'lishi bugun har xil sur'atlarda sodir bo'limoqda, oxirgi o'n yilliklarda bu jarayon barcha qit'alarda tezlashdi. 1970-yillargacha aborigenlarga o'z ona tillaridan foydalanish taqiqlab kelingan, Avstraliya o'lik yoki yo'qolib ketish xavfi ostidagi tillar soni bo'yicha rekordchi hisoblanadi. XX asr boshlarida u yerda mavjud bo'lgan 400 ta tildan hozir atigi 25 tasi qolgan. Afrikaning 1 400 ta tilidan kamida 250 tasi yo'qolib ketish xavfi ostida, 500–600 tasi esa so'zlashuvchilar soni kamayib borishi bilan passiv tilga aylanmoqda. Tayvanda 23 tilning yarmidan ko'pi xitoy tilining bosimi ostida qolgan.

Ilgari epidemiylar, urushlar yoki tug'ilish darajasining pasayishi tufayli odamlarning jismoni o'limi natijasida til yo'qolgan. Hozirda tillarning passiv tilga aylanishida shu tilda gapiruvchilarning u yoki bu tarzda ixtiyoriy ravishda boshqa dominant tilda so'zlashishga o'tishi ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi hollarda esa siyosiy hokimiyat fuqarolarni o'z ona tili qolib, rasmiy tilda gapirishga majbur qiladi. Bundan tashqari, so'zlashuvchilar o'zi va farzandlarining jamiyat integratsiyalashuviga hissa qo'shadi deb hisoblab, dominant til foydasiga o'z ona tilidan voz kechishi mumkin. Biroq bu strategiya dunyoning ba'zi qismlarida samarasizligi allaqachon isbotlangan: bolalar dominant tilni mukammal egallagan bo'lsalar ham, bu ularning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari ta'sir qilmaydi. Qolaversa, shu yo'l bilan ular o'z ona

tillarida deyarli gaplashmay, ota-onalari va qarindoshlaridan uziladi. Bu holat sizga tanish tuyulmayaptimi?!

YUNESKO tashkiloti ekspertlari tilning yo'qolib borishiga ta'sir etuvchi omillarni 0 dan 5 gacha bo'lgan xavflilik koeffitsiyentini ishlab chiqdi. Bunda tilning avloddan avlodga o'tib kelishi asosiy mezon sifatida e'tiborga olindi.

• 5 koeffitsiyenti. Bunda butun avlod vakillari shu tilda so'zlashadi. Tilning rivojiga hech qanday xavf yo'q, deb hisoblanadi.

• 4 koeffitsiyenti. Tilga ma'lum xavf borligini anglatadi. Bunda yoshlarning bir qismi ma'lum sohalarda (*masalan, ta'llim, savdo-sotiq*) o'zga tildan foydalanadi.

• 3 koeffitsiyenti. Tilga yuqori xavf borligini anglatadi, bunda jamiyatning o'rta qatlami ona tilida gaplashadi.

• 2 koeffitsiyenti. Tilga jiddiy xavf borligini bildiradi, chunki jamiyatning faqat keksa avlod vakillarigina ona tilida so'zlaydi.

• 1 koeffitsiyenti. Tilning o'lib borayotganini ko'rsatadi, chunki bunda sanoqli keksa avlod vakillarigina shu tilda gaplashadi.

• 0 koeffitsiyenti. Tilning o'lik tilga aylanganini anglatadi, chunki bu tilda gaplashuvchi hech kim qolmagan.

O'zbek tili olttoy tillari oilasining turkiy tillar guruhiga kiruvchi eng qadimiy tillardan hisoblanadi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Yer yuzida o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni 50 million kishiga yetdi. Bu, albatta, tilimizning rivojanib borayotgani belgisi. Biroq axborot texnologiyalarining barcha sohalarga kirib borishi, raqamli texnologiyalar, Internet tarmoqlari – axborot almashinuvining eng maqbul usuli bo'lib borayotgani tillarning rivojanishi uchun jiddiy to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

BMT tomonidan tillarning yo'qolib borishiga ikkita katta sabab ko'rsatilmoqda. Asosiy sabab – o'sha tilning internet tiliga aylanmaganligi, ikkinchisi esa o'zidan yuqori mavqedagi til soyasida qolib ketishi.

Tilning internet tiliga aylanishi deyilganda nima nazarda tutiladi. Tilshunos olma G. Toyirova shunday ta'riflaydi: "Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter lingvistikasida "Kompyuterning tilni tanishi", degan tushuncha bor. Kompyuter tilni "tanishi" uchun u bu tilni "bilishi" zarur. Kompyuterning matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, tarjima qilishi, so'zlarga izoh bera olishi, tilni o'rgatishi, matnni bir alifboden ikkinchi alifboga o'tkazib berishi, til ifodalarini tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi. Demak, sun'iy intellekt ma'lum tilni "tanisa", o'sha til asosida ishlaydi". Mazkur masalaga hukumat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilyapti, bu o'rinda Vikipediya elektron ensiklopediyasida o'zbekcha materiallarning ko'payganini misol qilsa bo'ladi.

Ikkinci ko'rsatilgan sabab esa til uchun jiddiy xavf tug'diradi. Tilning eng o'zgaruvchan sohasi uning leksikasi hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etib borishi bilan tilga yangi-yangi so'zlar kirib keladi, bu tabiiy hol. Lekin xorijiy so'zlarning kirib kelishiga ma'lum to'siqlar qo'yilmasa, belgilangan

me'yorlar asosida olinmasa, bu holat tilning nufuziga jiddiy ta'sir qiladi. Masalan, XV asrda badiiy asarlarning fors tilida, ilmiy asarlarning arab tilida yozilishi natijasida o'zbek tili nufuzini yo'qotib, oddiy so'zlashuv tiliga aylanib qolgan edi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy "Turk nazmida alam (*bayrog*) tortib" ona tilining boy imkoniyatlarini o'z asarlari orqali ko'rsatib berdi.

O'tgan asrning boshlarida milliy adabiy til yaratishga bel bog'lagan jadid ziyyolari ko'p ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" til posboni sifatida maydonga chiqdi. Hozirchi, tilning musaffoligini asrash, uni rivojlantirishdagi bugungi ahvolimiz qanday? Albatta, maqtanarli darajada emas. O'zbek tiliga shiddat bilan xorijiy so'zlar kirib kelmoqda, buning oqibati yaxshi bo'lmashligi haqida tilshunos olimlar bong urmoqda, lekin natija yo'q.

Muammoni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi qarori bilan Vazirlar Mahkamasini huzurida Atamalar komissiyasi tashkil qilingan edi. Komissiya zimmasiga ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarini rasmiy iste'molga kiritish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarida adabiy til qoidalari va normalariga, shuningdek yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga rioya etilishini ta'minlash, o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga joriy etish va amalda qo'llashning huquqiy muammolarini o'rganish kabi aniq vazifalar qo'yilgan edi. Afsuski, komissiya yuqoridagi vazifalarni bajara olmadи. Departament mazkur komissiya faoliyatini muvofiqlashtirib, uni faol ishlaydigan tashkilotga aylantira olsa, yuqorida tilga olingen muammolar o'z yechimini topgan bo'lar edi.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-sonli qarori bilan "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Mazkur qaror bo'yicha 2023-yil 1-yanvardan boshlab normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Afsuski, hukumatning bu qarori ijrosi ham hali to'liq ta'minlangan yo'q. Agar mazkur qaror ijrosi ta'minlansa ham chetdan kirib kelayotgan yangi atamalar tartibga solinar edi. Tilimizning internet tiliga aylanishida nafaqat tilshunoslar, balki barcha soha mutaxassislarining birgalidagi faoliyati zarur.

Shu o'rinda Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimorda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini alohida ta'kidlashni xohlardim. Mazkur farmon bilan o'zbek tilini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Konsepsiyada ko'zda tutilgan har bir topshiriq belgilangan muddatda bajarilsa, ko'zlangan maqsadga erishamiz va tilimiz "Qizil kitob"ga tushib qolmaydi.

Inomjon AZIMOV,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

HARBIY SUDLAR O'TMISHIGA NAZAR

Yurtimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovnii amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish bilan bir qatorda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimizda adolat va qonun ustuvorligini o'rnatishda O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlarining alohida o'rni bor.

Mamlakatimizda 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida Oliy sud tashkil etilganligining 100 yilligi nishonlanadi. Shu nuqtai nazardan o'zbek davlatchiligining muhim tarkibiy qismi bo'lgan sud tizimi, xususan harbiy sudlar tarixini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududida salkam XIII asr mobaynida qozilik sudlari, xalq urfatot va me'yorlariga asoslangan "biy" sudlari amalda bo'lgan. Ular shariat qonun-qoidalari asosida fuqarolik va jinoyat ishlarni ko'rib chiqib, notarial harakatlarni amalga oshirgan.

Tarixda Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligida asosiy sud tizimi vazifasini qozilar o'tagan. Xususan, Qo'qon xonligida qozi va multillardan iborat sudlov ishlarni olib boruvchi vazifa egalari mavjud bo'lib, xonlikning Toshkent bekligida to'rt xil vakolati qozilar faoliyat ko'rsatgan. Bular: qozi kalon, qoziyl kuzot, qozial askariy, qozi rais. Qoziyl kuzot (qozilar qozisi) ham xon tomonidan tayinlangan va protsessual jihatdan qozi kalonning yordamchisi hisoblangan, ya'ni qozi kalon yo'q vaqtlarida uning lavozimini vaqtinchalik bajargan va una boshqa alohida huquqlar berilmagan.

Qozial askariy esa beklar tomonidan tayinlanib, ularning qoshida faoliyat yuritgan. Ular protsessual jihatdan maxsus sudya hisoblanib, beklar doirasida xizmat qiluvchi askarlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlarni tekshirgan (ya'ni hozirgi harbiy sudlar vazifasini bajargan). Beklar qoshidagi mansabdarlar tomonidan sodir qilingan mansabdarlik bilan bog'liq jinoyatlarni ko'rish ham ularning vakolatlariga kirgan. Shu bois qozial askariyning hukmlari ustidan shikoyatlar bevosita bekning o'ziga berilgan xolos.

Hozirgi kunda harbiy sudlar O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan tarixiga davrdan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda. Ular respublika umumiyy sud tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Unga qadar bo'lgan harbiy tribunallar O'zbekistonning umumiyy sud tizimiga kiritilmagan, chunki umumiyy kolonial siyosat tufayli ittifoq respublikalaridagi Qurolli Kuchlar respublikaga emas, balki bevosita sobiq Turkiston harbiy okrugi qo'shnirlari va harbiy tribunallar Moskvaga bo'ysungan edi.

Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, 1917-yil oktabr to'ntarishidan keyin harbiy xizmatchilar va dengizchilarining jinoyat ishlari sud to'g'risidagi 1-sod dekret asosida tashkil etilgan va mahalliy sudlar tomonidan ko'rilar edi. Shu bilan birga, umumfuqarolik sud organlari, ayniqsa jangovar harakatlarni sharoitida, Qurolli Kuchlardagi ongli harbiy intizom uchun samarali kurashish bilan birga, ishlarni tezlik bilan hal etilishini ta'minlay olmaganlar, chunki sudyalar Qurolli Kuchlardan ajralgan bo'lib, harbiy xizmatning o'ziga xos jihatlarini bilmagan. Qurolli Kuchlar tuzilmalari bilan tashkiliy jihatdan boshqa sndlarga zarur ehtiyoj

Revolyutsion harbiy tribunallarning tashkil etilishi olib keldi.

1918-yilning iyun oyida 1-Armiya tarkibida birinchi armiya tribunal tashkil etilib, shu yilning oxiriga kelib bunday tribunallar barcha frontlar va amaldagi armiyalarda ham tashkil etildi. Harbiy tribunallar faoliyatiga rahbarlik qilish uchun 1918-yil 8-dekabrdan ishga tushgan Inqilobi harbiy tribunal faoliyat ko'rsatgan. 1919-yil 20-noyabrda tribunallar faoliyatini tartibga soluvchi birinchi qonuniy hujjat "Inqilobi harbiy tribunallar to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Unda tribunallarni tashkii etish masalalari, ishlarni ko'rish tartibi, ularning sudlovgaga taalluqliligi, sud muhokamasida ayblov va himoya vakillarining ishtiroki, hukmlar ijrosi va boshqalar nazarda tutilgan.

Inqilobi harbiy tribunallarning hukmlari e'lon qilinganidan keyin zudlik bilan qonuniy kuchga kirgan va shikoyat qilinishiga yo'l qo'yilmagan. Agar Inqilobi harbiy kengash hukm ijrosini to'xtatsa, shu hukmni bekor qilib, ishni yangidan ko'rishi yoki o'zgarishsiz qoldirishi mumkin bo'lgan yuqori turuvchi revharbiytribunalga yuborilgan. Maxsus sudlar hisoblangan Inqilobi harbiy tribunallar faoliyatining o'ziga xosligi armiya sharoitida ba'zi protsessual huquq normalarining alohida tarzda qo'llanishidangina iborat bo'lgan.

Harbiy sud organlari to'g'risidagi qonunchilikning bundan keyingi rivojlanishi BMIQ (ВЦИК—всероссийский центральный исполнительный комитет) 1920-yil 18-martda Revolyutsion tribunallar haqidagi nizom qabul qilinishi munosabati bilan 1920-yil 4-maydag'i "Revolyutsion harbiy tribunallar to'g'risida"gi nizomda yanada mustahkamlandi. Mazkur nizomga muvofiq, boshqacha tartibda va ushbu huquqiy hujjatga asoslanmagan holda tashkil etilgan barcha favquloddagi sudlar hamda sud vakolatlariga ega bo'lgan tashkilotlar tugatildi. Lekin Qurolli Kuchlardagi jinoyatchilikka qarshi kurash uchun maxsus tuzilgan Inqilobi harbiy tribunallargina saqlanib qolindi.

Fuqarolik urushining tugashi va Qurolli Kuchlarning qisqarishi bilan harbiy sud tizimi ham o'zgardi. BMIQning 1921-yil 23-iyundagi qaroriga binoan Respublika inqilobi harbiy tribunali tugatildi. Inqilobi harbiy tribunallar faqat jangovar harakatlarni davom etayotgan joylarda saqlab qolindi. Mazkur tribunallarga rahbarlik BMIQ tarkibidagi harbiy hay'at bo'lgan Oliy tribunalga yuklatildi.

Harbiy xizmatchilarga doir ishlarning ko'pchiligi yana hududiyl sndlarda ko'rila boshlandi. Biroq 1922-yilda barcha harbiy okruglar va frontlarda yagona sudlov shaklida harbiy tribunallar qayta tashkil etildi. Sudlov shaklining birligi prinsipi barcha sudlar vakolatini belgilab bergan "Sudlov ishlari to'g'risida"gi 1922-yil 31-oktabrdagi nizomida mustahkamlab qo'yildi.

1923-yilning 1-yanvaridan boshlab Inqilobi harbiy tribunallarga RSFSR Oliy



sudi harbiy hay'ati rahbarlik qilgan, 1924-yil aprelida esa SSSR Oliy sudi tashkil etilishi bilan harbiy hay'at uning tarkibiga kiritilgan. Harbiy hay'at Inqilobi harbiy tribunallarga tashkiliy tomonidan rahbarlik qilgan, shuningdek birinchi instansiya sudi sifatida juda muhim ishlarni ko'rgan. Lekin okrug revharbiytribunalari hukmlarini kassatsiya tartibida ko'rib chiqish vakolati ittifoq respublikalari Oliy sudlarida qolgan. Faqat 1926-yil 20-avgustida tasdiqlangan, "Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura to'g'risida"gi nizomgina tribunallarning barcha faoliyatiga sobiq SSSR Oliy sudi harbiy hay'atining rahbarligini mustahkmlagan va Inqilobi harbiy tribunallar harbiy tribunallar deb qayta nomlangan.

Sudlov ishlarni yuritish tartibini belgilovchi ushbu Nizom jinoyat protsessining asosiy prinsiplariga aniqlik kiritib, odil sudlov organlari sifatida Qurolli Kuchlar xususiyatini hisobga olgan holda ularning faoliyatidagi tezkorlikni ta'minlash maqsadlarini ko'zlagan.

1936-yilda Adliya xalq komissarligi (AXK) tashkil qilindi va sndlarga tashkiliy rahbarlik qilish vazifasi Adliya xalq komissarligiga yuklatilgan. Harbiy tribunallarga nisbatan ushbu vazifani komissarlikning sud muassasalari bo'limiga qarashli maxsus sudlar shu'basi bajargan. Sobiq SSSR Oliy sudining harbiy hay'ati o'ziga xos bo'limagan boshqaruv majburiyatlaridan ozod etilgan.

1939-yil 15-iyunda qabul qilingan Adliya xalq komissarligi to'g'risidagi nizomga muvofiq, ushbu komissarlikda harbiy tribunallar bo'limini ham o'z ichiga olgan Maxsus sudlar boshqarmasi tashkil qilindi. Ammo 1940-yil 13-iyunda maxsus sudlar boshqarmasi o'rniiga harbiy tribunallar boshqarmasi tashkil etilgan, ushbu boshqarma esa 1942-yil may oyida Harbiy tribunallar boshqarmasi (HTB) sifatida qayta tashkil qilindi.

1941–1945-yillarda HTB safarbarlik rejasini ishlab chiqdi va urush boshlanishi bilan qisqa muddatlarda ko'p sonli yangi brigada, diviziya, aviaistehkom hududlari va harbiy-dengiz bazalari harbiy tribunallarini tashkil qilish masalalarini hal etdi. Harbiy holat e'lon qilingan joylardagi va harbiy harakatlar bo'layotgan hududlardagi harbiy tribunallarga doir nizomni tasdiqlagan sobiq SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 22-iyundagi farmoniga muvofiq, harbiy tribunallarning eng og'ir davrdagi faoliyatini ta'minlash uchun zarur qonun hujjatlari ishlab chiqilgan.

Urush yillarida harbiy tribunallar faoliyatiga rahbarlik qilishda AXK (NKYU) va HTBB (GUVT) katta o'r'in tutgan. Urush tugaganidan so'ng harbiy tribunallarga tashkiliy jihatdan rahbarlik qilishning huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash choralarini ko'rildi. 1946-yil 27-iyulda Ministrler Soveti Qurolli Kuchlar Harbiy tribunallar bosh boshqarmasi to'g'risidagi nizomni tasdiqladi. Nizomda bosh boshqarma faoliyati vakolatlarining ro'yxati, uning tuzilishi va harbiy tribunallarga rahbarlik qilish bilan bog'liq boshqa masalalar ham belgilangan.

Urushdan keyingi davrda Qurolli Kuchlarda amalga oshirilgan qisqartirishlar munosabati bilan korpuslar, diviziylar, brigadalarning harbiy tribunallari, IIV qo'shnirlari harbiy tribunallari va transport harbiy tribunallari taalluqli ishlarni sezilarli darajada kamaydi. Urush tugashi bilan urush davri sharoitlarda yuzaga keltirgan protsessual cheklashlar olib tashlandi.

1956-yil may oyidan boshlab harbiy tribunallarga rahbarlik qilish vazifasi Oliy sud harbiy hay'atiga o'tgan bo'lsa-da, mazkur qayta tashkil etish natijasida bir necha yillar mobaynida kadrlar tayyorlash, shtatlarni to'ldirish kabi bir qator muammolar hal bo'limagan. Sobiq SSSR Adliya vazirligining qayta tiklanishi bilan uning tarkibida yana harbiy tribunallar boshqarmasi tashkil etildi. Harbiy tribunallarga tashkiliy rahbarlik "Harbiy tribunallar to'g'risida"gi nizomning 25-moddasida mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan Turkiston harbiy okrugi tugatilib, Respublika Qurolli Kuchlarda qonunlarning ustunligini ta'minlash imkoniyati vujudga keldi. SSSRga bo'y sunuvchi harbiy tribunallarning tugatilishi va mutlaqo yangi institut – mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlari harbiy sudlarining tashkil etilishi bilan harbiy adliya organlari uchun yangi davr boshlandi. Ular birinchi marta respublikamizning umumiy sud tizimiga kirtildi.

Keyinchalik harbiy sudlar mustaqilligini ta'minlash borasida davlatimizda bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 2021-yil 28-iyul kuni yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq, "Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi nizom o'z kuchini yo'qotib, qonunga 1-ilova tariqasida yangi tahrirda "Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Hozirgi kunda harbiy sudlar o'z faoliyatlarini yangi qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi qonun va nizom talablari asosida amalga oshirmoqda.

Umuman olganda, harbiy sudlar tizimini milliy-huquqiy qonunchilik asoslarini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirib borilishi, mamlakatimizda sud faoliyatini hamda odil sudlovgaga bo'lgan huquqlarning amalda ta'minlanishiga hamda jamiyatda sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchning yanada ortishiga sharoi yaratadi.

Yurtimizda olib borilayotgan sud-huquq va Qurolli Kuchlardagi islohotlarda harbiy sudlar faol ishtirok etishmoqda va boshqa huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda huquqburzaliklarning oldini olish, qat'iy ustav tartibini o'rnatish, jinoyatchilikka barham berish, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini samarali muhofaza qilishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shmaqda.

**O. JUMAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy sudining sudyasi**

SHIMOLI-G'ARBIY HARBIY OKRUG

Mamlakatimiz Shimoli-g'arbiy sarhadlarini ishonchli himoya qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyati aholisining tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligini ta'minlash, chegaralarimiz daxlsizligini qo'riqlashga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug o'zining 25 yoshini qarshi oldi.



Shu munosabat bilan Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida bayram tantanasi bo'lib o'tdi. So'zga chiqqanlar harbiy okrug qo'shnlari qo'mondonligini tantana bilan tabriklab, fidoyi, yurtsevar, mehnatkash harbiy xizmatchilarga Vatan himoyasi yo'lidagi mashaqqatli xizmatlarida ulkan zafarlar tiladi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug O'zbekiston Qurolli Kuchlarini isloh qilish, mamlakat mudofaa salohiyatini yuksaltirish davomida 1998-yil 13-oktabr kuni tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda yurtimizning shimoli-g'arbiy sarhadlarini himoya qilishda ishonchli qalqon vazifasini o'tamoqda. Harbiy okrug chin ma'noda xalqimiz va armiya o'ttasidagi rishtalarni mustahkamlash, armiya va xalq yakdilligini ta'minlashda, shuningdek aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar bilan ishslash, ular o'tasida vatanparvarlikni targ'ib etishda okrug qo'shnlarining munosib hissi bor.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda ham katta yangiliklar, bунyodkorlik va rivojlanishga asos bo'ldi. Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun "Nukus" va "Yangiariq" umumqo'shin poligonlarining infratuzilmasi tubdan yangilandi. Bo'limallar zamonaviy quroslasлаha va harbiy texnikalar bilan butlash ishlari jadal olib borilib, qo'shnlarning harakatchanligi va jangovar quadrati ortishiga erishildi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash masalalariga alohida e'tibor berilishi natijasida so'nggi yillarda 500 dan ortiq harbiy xizmatchi va 200 nafarga yaqin harbiy pensioner uy-joy bilan ta'minlandi. 200 nafarga yaqin harbiy xizmatchining farzandlariga olyi ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar berildi. 250 nafardan ortiq harbiy xizmatchining turmush o'rtoqlari kasbga o'qitilib, ish bilan ta'minlandi. Muqaddam ishsiz bo'lgan harbiy pensionerlarning 100 nafardan ortig'ining bandligi ta'minlandi.

Nukus harbiy gospitalining asosiy binosi to'liq ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirilishi yurt himoyachilari va ularning oila a'zolari, shuningdek harbiy pensionerlarning salomatligini tiklash bo'yicha eng olis garnizonda ham yuqori

nativjalarga erishildi. 2022–2023-yillarda Nukus garnizonidagi harbiy shaharchada xizmat xonadonlarining 80 foizi kapital ta'mirlandi hamda Urganch garnizonida yangi qurilgan va 5 qavatdan iborat bo'lgan 40 xonadonli xizmat uyi foydalanishga topshirildi.

Harbiy oilalar, shuningdek o'sib kelayotgan yosh avlodning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni ta'minlash maqsadida Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tiklanib, uning qoshida 20 dan ortiq fan hamda sport to'garagining faoliyati yo'nga qo'yildi. Urganch va Nukus garnizonidagi harbiy qismalar, umumqo'shin poligonlarida ma'naviyat va ma'rifat markazlari bунyod etildi.

"Xalq va armiya – bir tan-u, bir jon!" degan ezgu tamoyil asosida hamda "Mehr-saxovat" dasturi doirasida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 600 nafardan ziyod kam ta'minlangan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj vatandoshimizga moddiy va ma'naviy ko'mak berildi. Eng olis ovul va qishloqlarda ham saxovatga yo'g'rilgan tadbirlar o'tkazilib, xalq va armiya birligi mustahkamlandi.

Tantana munosabati bilan bir guruh harbiy xizmatchilar va ishchi-xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari, kuch tuzilmalari vakillari O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining "Namunali xizmati uchun" ko'krak nishonlari, Mudofaa vazirligi ramzlar tushirilgan esdalik sovg'alari, harbiy okrug qo'shnlari qo'mondonligining faxriy yorliq va qimmatbahо sovg'alari bilan tantanali ravishda taqdirlandi. Shuningdek, bir qator harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar topshirildi.

Bayram munosabati bilan tashkil etilgan konsert dasturi davomida Qoraqalpog'istonning ijodiy jamoalari hamda okrug harbiy orkestrining chiqishlari yig'ilganlarga o'zbek va qoraqalpoq milliy kuy-qo'shiqlarining betakror jilolarini tuhfa etdi.

Podpolkovnik Timur NARZIYEV

Globallashuv sharoitida harbiy ta'lim sohasi bilan jamiyatning rivojlanib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlari o'ttasida nomutanosiblikning yuzaga kelayotganligi kuzatilmoxda. Harbiy ta'lim tizimi oldiga barkamol harbiy xizmatchi (*ofitser, serjant va askar*) shaxsini shakllantirish, harbiy ta'lim sohasi bilan harbiy mehnat o'ttasidagi nomutanosiblikni qisqartirish kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda. Ularni bajarish uchun mamlakatimizda davlat ta'lim standartlari qabul qilindi va respublikamiz miqyosida, shu jumladan harbiy ta'limning mazmunini yangilash maqsadida dasturiy chora-tadbirlar ishlab chigildi.



Harbiylarga hukumatimiz tomonidan ko'ssatilayotgan g'amxo'rlik, ularning harbiy va kasbiy tayyorgarliklariga ilmiy yondashilayotgani Qurolli Kuchlarimiz nufuzi ortib borayotganidan dalolatdir. Shuning uchun harbiylar hukumatimiz, xalqimiz tomonidan bildirilayotgan ishonchga o'z faoliyatları samaradorligini oshirish bilan javob berishlari talab etiladi.

Buning uchun harbiy xizmatchilar quydagi amal qilishlari maqsadga muvofiq:

– o'z kasbiy bilimlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ya'ni mustaqil tarzda harbiy qurilish, harbiy taktika va strategiyaga, harbiy boshqaruva va kasb odobiga oid ilmiy adabiyot va ommaviy nashrlardan foydalanishlari lozim;

– xizmat munosabatlarda xushmuomalalikka amal qilib, harbiy nizom doirasida harbiy burch va majburiyatlarini bajarishlari, jamoat joylarida shaxsiy xulqni nazorat qilib, kasbdoshlardan ham buni talab qila olishlari kerak;

– “komandir-bo'ysunuvchi” munosabatlarda har bir harbiy xizmatchini shaxs sifatida idrok etib, uning shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilishi lozim. Bu nafaqat komandir (*boshliq*), balki yetuk inson-harbiy mutaxassis sifatida komandirning ijobjiy sifatlarini namoyon etadi;

– respublikamiz ommaviy axborot vositalarida shaxsiy tajriba bilan o'rtoqlashish, tajriba almashtishni yo'nga qo'yib, yosh harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, harbiy jamoalarni boshqarish kabi masalalarni muhokama qilish.

Ta'kidlash kerakki, munosabatdagi har qanday salbiy holat, u xoh oila doirasida, xoh biron-bir jamoada ifodalanmasin, Qurolli Kuchlarda ham o'z aksini topish ehtimoli bor. Shu bois shaxsiy tarkib bilan ishlaydigan komandirlar institutining ilmiy bazasini kuchaytirish talab etiladi. Chunki harbiy xizmatchilarga milliy g'oya va mafkura asosida ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish bevosita ularning zimmasidadir va ochig'ini aytish kerakki, bu boradagi muammolar talaygina. Masalan, sohaga daxldor adabiyotlarning aynan ijtimoiy-harbiy xususiyatlarni inobatga olib yozilmaganligidir. Bunda tarixiy tajribalar va harbiy faoliyatni tanqidiy-nazariy hamda qiyosiy (*xorij tajribasini o'rganib*) tahlil qilish asosida, ilmiy ta'limotlarga (*mohir harbiy xizmatchi*

KASBIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISHDA HARBIY TA'LIMNING AHAMIYATI



talabnomalarga qat'iy rioya etish)lar alohida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi.

Harbiy ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim vazifasi harbiy xizmatchilarning ilmiy tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantrishdir. Negaki busiz ular ijtimoiy-siyosiy munosabatlar doirasida va bozor munosabatlarning hozirgi bosqichida, fantexnika taraqqiyoti jadal davom etayotgan sharoitda harbiy faoliyatda faol ishtirot eta olmaydilar. Shu sababli, qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantrishda o'qitish – tarbiyalash muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ko'rsatib o'tamiz. Harbiy ta'lim-tarbiya jarayonida qobiliyat darajasini yuqoriq rivojlanish darajasiga o'tkazish uchun eng oqilona sharoitlar yaratish mumkin.

Buning uchun:

– **birinchidan**, harbiy xizmatchi/tinglovchilarni harbiy-siyosiy muammolar andazasini yaratish, ilmiy uslublar yordamida tahilini amalga oshirishga o'rgatish lozim;

– **ikkinchidan**, harbiy xizmatchi/tinglovchilarni ilmiy ijodiy faoliyatga qiziqtarish kerak;

– **uchinchidan**, harbiy xizmatchi/tinglovchilarni o'quv-jangovar vazifalarni hal etishda individual faoliyk ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratish lozim.

D. RAHMONOV,
Qurolli Kuchlar Harbiy
meros va zamonaviy
tadqiqotlar instituti markazi
katta ilmiy xodimi,
fals.f.b.f.d. (PhD)

shaxsini tarbiyalash konsepsiysi, Zamnaviy urush nazariysi va b.) tayangan holda ta'limiy adabiyotlar yaratish lozim. Shuni e'tiborga olish lozimki, ta'lim-tarbiya doimiy tarzda takomillashib boradigan jarayon hisoblanib, uni o'zgarishiga fan, texnika va ishlab chiqarishning rivoji, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harbiy-strategik vaziyat omili ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik, axborot kabi omillarning o'zaro bog'liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi. Bular birinchi galda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini yechish va maqsad sari yo'naltirishga qaratilgandir.

Mazkur tizimning shakllanishi ikkilamchi dialektik jarayon bo'lib, unda murakkablik, kengqamrovililik va ziddiyat kabi qonuniyatlar o'z ifodasini topgan. Barqarorlik tizimi tashkiliy jihatdan tabiiy integratsiya tayanib, fuqarolik jamiyatni va davlatning tinchligi yuzasidan maqsadli yo'naltirilgan usul va vositalar asosida muammolarni o'zaro manfaatdorlikda yechishga qaratilgandir. Bunda Qurolli Kuchlarning tutgan o'rni alohida ahamiyatga molik.

Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatning hududiy yaxlitligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun yetuk harbiy xizmatchi shaxsini tarbiyalash

ONAM ALLASIDAN BOSHLANGAN VATAN

Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan Prezidentimizning qaroriga ko'ra, bir guruh fidoyi, shijoatli harbiylar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi. Sharaflanganlar qatorida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi, "Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibi polkovnik Odil Muxamedov ham bor.



O'z taqdiringni Vatan taqdiri bilan bog'lamoq, uning tinchligi, osuda tunlari-yu nurafshon tonglari himoyachisiga aylanmoq naqadar sharafli va shu bilan birga bor ilming, zehn-u salohiyating, imkoniyating, zarur bo'lganida hatto joningga fido aylash naqadar mas'uliyatlari. Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi polkovnik Odiljon Muxamedov ham yurt yukini yelkasiga olgan, o'zining yuksak ilmiy salohiyati, tashabbuskorligi, halol va samarali mehnati bilan Vatan himoyasi yo'lida ko'p yillardan buyon sodiq xizmat qilib kelayotgan fidoyi harbiylardan biri.

ODIL INSON BO'L SIN DEYA...

...1970-yilning bahori. Buxoro viloyati Kogon shahrida istiqomat qilayotgan Ismatjon va Tursunxon Muxamedovlar oilasi uchun quvonchli voqealarga boy bo'ldi. Boisi aprel oyining 29-sanasida yangi qurilgan oilada to'ng'ich o'g'il farzand dunyoga keldi. Oila boshlig'i Ismatjon aka Qiziltepa tumanidagi ichki ishlар organlarida xizmat qilar va hamisha har ishda adolat mezoni ustun bo'lismeni istagani sabab kelgusida o'g'lini ham adolatli, odil inson bo'lismeni niyat qilgan holda chaqaloqqa Odiljon deya ism qo'yadi. Baxtiyor oilada yana uch o'g'il va bir qiz dunyoga kelib, qahramonimiz bosh farzand sifatida ukalari va singlisiga doimo g'amxo'rlik qilib keladi.

1977-yilda Odiljon Kogon shahridagi 4-umumta'lim məktəbiga o'qishga boradi. Birinchi o'qituvchisi Norjon

Baqoyevadan o'qish va yozishni o'rgangan intiluvchan, tirishqoq o'quvchi maktabda tashkil etilgan geografiya to'garagiga ham qatnay boshlaydi. Qahramonimiz yosh bo'lishiga qaramay, maktabda aniq fanlarni yaxshi o'zlashtira olgani bois 6-sinfda o'qib yurgan kezlaridayoq o'zidan katta 8-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan matematika fani olimpiadasida 1-o'rinni egallahsha muvaffaq bo'ladi.

HAR LAHZADAN UNUMLI FOYDALANIB...

Bolaligidan otasini harbiy libosda ko'rib, uning ust-boshini, ayniqsa bosh kiyimini kiyib yurishni yaxshi ko'radigan Odiljon ulg'ayganida albatta harbiy bo'lishini niyat qilgan edi. Shu bois maktabni tamomlaganidan so'ng 1989-yilda Minsk oliv harbiy-siyosiy umumqo'shin bilim yurtiga o'qishga kiradi. Yoshlikning har lahzasidan unumli foydalinish kerakligini o'ziga shior qilib olgan o'g'lon bilim yurtida matematika va fizika kabi aniq fanlar bilan bir qatorda, siyosatshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlarini ham yaxshi o'zlashtiradi.

E'tiborlisi, kichik jussasida katta shijoat jo bo'lgan qahramonimiz sportda ham yaxshi natijalarga erishib, harbiy ko'pkurash bo'yicha sport ustaligiga nomzod bo'lish bilan bir qatorda, qo'l to'pi sport turi bilan ham shug'ullanishni kanda qilmaydi.

Juda qizg'in va sermahsul kechgan o'qish yillari o'z nihoyasiga yetib, 1993-yilda Odiljon Muxamedov mazkur bilim yurtini motoo'qchi qo'shinlari taktik-ko'mondonligi ixtisosligi bo'yicha yakunlab, "ijtimoiy pedagog-psixolog" klassifikatsiyasini oladi.

Harbiy oliv ta'lif muassasasini tamomlab, shu yili Vatanga qaytgan qahramonimiz uzoq yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa va Ichki ishlар vazirligi harbiy qism hamda bo'linmalarida turli lavozimlarda xizmat qiladi.

MUNOSIB HISSA

Har bir muvaffaqiyatning poydevori bu – ilm deya hisoblaydigan Odiljon Muxamedov 2005-yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash Oly məktəbiga tinglovchi sifatida o'qishga qabul qilinadi. Yuqori salohiyat va pedagogik iqtidori

sabab 2007-yilda o'qishni tamomlaganidan so'ng ushu ta'lif muassasasida o'qituvchi lavozimiga ishga tayinlanadi.

– Pedagog bo'li shakllanishimda ustozlarim Murad Atayev, Sergey Ivashkov (marhum) va Sa'dulla Otamurodovning hissasi katta. Ularning ko'magida Oly məktəb doirasida 300 nafardan ortiq magistrleriga Siyosiy psixologiya va Zamoniaviy sotsiologiyaning dolzarb muammolari fanlardan saboq berdim, 10 nafardan ortiq tinglovchining magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qildim. Bugungi kunda ular turli sohalarda mas'uliyatlari lavozimlarda xizmat qilib kelishmoqda, – deydi qahramonimizning o'zi.

Oly ta'lif dargohidan so'ng Davlat xavfsizlik xizmati organlarining turli bo'linmalarida faoliyat olib borgan polkovnik Odiljon Muxamedov 2015-yildan buyon DXX Chegara qo'shinlari safida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash ishiga munosib hissa qo'shib, malakali ofitser, rahbar hamda katta ilmiy salohiyatga ega ustoz sifatida yosh mutaxassislariga o'z hayotiy tajribalarini o'rgatish bilan bir qatorda, jangovar tayyorgarlikni tashkillashtirish bo'yicha qator o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda dasturlarning chop etilishida jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

Shuningdek, harbiy xizmatchi ham ma'nан, ham jismonan barkamol bo'lishi bugunning asosiy talablaridagi birlashtirish borasida amalga oshirayotgan tadbirlari natijasida, bugungi kunda DXX Chegara qo'shinlarning ko'plab harbiy xizmatchilari jahon va Osiyo championlari bo'imoddalar.

YUKSAK E'TIROF

Jangovar xizmat faoliyatida erishgan yuqori natijalari, shaxsiy tarkibni samarali boshqara olish mahorati hamda nostandart vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qila olish qobiliyati e'tirof etilib, qahramonimiz 2003-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

Vatanimiz mustaqilligining 32-yilligi munosabati bilan "Sodiq xizmatlari uchun" medaliga munosib ko'riliishi ham uning quvonchiga yanada quvonch qo'shdidi.

– Men uchun Vatan onamning allalaridan boshlanib, quloqlarim

orqali qalbimga singgan. Taqdirim uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Ayni damda biz tobora yuksalib borayotgan, islohotlar har sohada jadallik va izchillik bilan amalga oshirayotgan, inson qadri ulug'lanib, uning baxtli va farovon turmushi ta'minlanayotgan Yangi O'zbekiston sarhadlarini qo'riqlar ekanmiz, bu bizning zimmamizga ko'plab vazifalar va juda katta mas'uliyatni yuklaydi. Ana shu mas'uliyatni his qilish va vijdoran bajarish esa insони albatta yuksaklarga ko'taradi. Ikki bora davlat mukofotiga munosib ko'riliishi ham, Vatan o'z fidoyilarining mehnatini hamisha ulug'lashi va e'tirof etishining amaldagi isbotidir. Buni hamisha shaxsiy tarkibimga, shogirdlarimga ham ta'kidlayman. Zero ularning yutuqlarini o'z yutug'im deb bilganim kabi kamchiliklari va muammolarini ham o'zimni hisoblab, xizmatda va hayotda qoqilmasliklari uchun doimo to'g'ri yo'l ko'rsatishga harakat qilaman. Menga ko'rsatilgan bunday e'tibor va rag'bat uchun esa davlatimiz rahbariga samimi minnatdorchiligidagi bildirgan holda, bor kuch-g'ayratim, ilm-u salohiyatimni shu yurt ravnaqi yo'lida safarbar etishga va'da beraman, – deydi polkovnik Odiljon Muxamedov.

EZGU FAZILAT

Qahramonimizning ezgu fazilatlaridan yana biri uning olibarvarligi. Turmush o'rtoq'i Yorqinoy bilan birga uch nafr o'g'lini kamolga yetkazishmoqda. Katta o'g'li Ismatillo joriy yilda Turin politexnika universitetini tamomladi, Izzatillo ham ushu oliv ta'lif muassasasida tahsil olmoqda. Kichik o'g'li Ne'matillo poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lum maktabi o'quvchisi. Oila farovonligi uning boshlig'idan katta mehnat va shu bilan birga shaxsiy namunani talab qilishini ta'kidlaydigan polkovnik Odiljon Muxamedov o'zi ham hamisha mas'uliyatlari turmush o'rtoq va ibratlari ota bo'lismaga qiladi.

Biz qahramonimizni yuksak davlat mukofoti bilan qutlab, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash yo'lida mas'uliyatlari xizmat faoliyatida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

MA'RIFAT

QO'SHINLARDA DINIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISH

Islom dini milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizning bir bo'lagi

hisoblanadi. U yashash tarzimiz, urf-odatlarimizda bo'y ko'rsatib turadi.

Shuni inobatga olgan holda Termiz garnizoni tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbir amalga oshirildi.

Unda Surxondaryo viloyati hokimi o'rinosbasari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Zulkumor Xidirova, Termiz xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Jo'rabet Cho'tmatov, O'zbekiston musulmonlar idorasi Surxondaryo viloyati vakili Sirojiddin Bo'riyev, mutaxassis Faxriddin Xudoinazarov ishtirok etdi.

Tadbirda so'z organlar islam dinining asl mazmun-mohiyati, islam ta'lomitida Vatan himoyasi, diniy bag'rikenglik, qo'shinlarda diniy muhitni




sog'lomlashtirish, shaxsiy tarkib orasida turli xil diniy qarashlar kuchayishi va aqidalarga berilib ketishning oldini olish, shuningdek oilalardagi sog'lom turmush tarzi va mehr-oqibat haqidagi o'talib o'tishdi. Harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidan savol-javoblar o'tkazildi.

Tadbirda mavzuga oid videofilmlar namoyish etildi.

Dilorom ADILOVA,
Termiz garnizoni xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis

YOSH OFITSERLAR QUROLLI KUCHLARIMIZ QALQONI



Har qanday davlatning, millat va jamiyatning eng katta boyliklaridan biri bu inson resursidir. Davlatning aholisi, ushbu hududda istiqomat qilayotgan millatning tarixiy ildizlari, avlod qanchalik baquvvat, sog'lom va ma'nан yetuk, ruhi tetik bo'sa, u shunchalik tez ravnaq topadi, har jihatdan qudratli davlatga aylanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar masalasi tez-tez tilga olinmoqda. Bu Prezidentimizning talabi, bevosita rahbarligida olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlarning asosini tashkil etuvchi muhim omildir. “Biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatlari, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz”, deydi davlatimiz rahbari.

Yuksak minbarlarda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama rivojlangan komil inson sifatida, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari haqida so'z yuritilganda Qurolli Kuchlar zimmasidagi juda muhim va aniq vazifalar ham belgilab berildi. Chunki Qurolli Kuchlar bugungi kunda tom ma'noda aholini, ayniqsa yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik ruhida tarbiyalashning, ularda jamiyatimizdagi islohotlarga daxldorlik hissini va mustahkam hayotiy pozitsiyasini shakkantirishning chinakam matabiga aylanib bormoqda.

Jahonda mafkuraviy kurashlar keskin tus olayotgan, axborot makonida turli xavf-xatar va tahidilar tobora ortib borayotgan, shuningdek ushbu mafkuraviy tahidilar ta'siriga **aynan yoshlar tushib qolayotgan hozirgi vaziyat barchamizni doimiy ogoh va sezgir, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishimizni taqozo etayotir**. Albatta, yoshlar bu katta kuch, biroq bu kuchni davlat va jamiyat boshqarmas, nazoratga olmas va to'g'ri yo'lga solmas, ruhini bilim va ezzulikka to'yintirmsa ekan, u yovuz niyatli kuchlar qo'lida xavfli quroqla, ta'bir joiz bo'lsa, siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida vositaga aylanishi mumkin.

Tahlilchilarning ma'lumotlariga ko'ra, tartibsizliklarda va ommaviy g'alayonlarda ishtirok etgan fuqarolarning qariyb 80 foizini 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil etgan. Bunday holat bizni yoshlar tarbiyasiga, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

va ko'maklashish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi. O'zbekiston o'z yoshlarini hech qachon, hech kimning qo'liga topshirib qo'ymaydi. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini quyidagi raqamlarga qarab ham xulosa qilishimiz muhim sanaladi.

So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining aholisi har yili qariyb 500 ming kishiga ko'paymoqda; mamlakatimizning 34,6 million aholisining 55 foizini, ya'ni 18 milliondan ortiq kishini 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar tashkil etadi; bugungi kunda **Mudofaa vazirligi harbiy qism va bo'linmalarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarining deyarli 80 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi**, har yili esa minglab yoshlar muddatli harbiy xizmatni o'tab, uylariga qaytishlarini, shuningdek 16-18 yoshdagagi fuqaro yoshlarimizning harbiy kasba va xizmatga qiziqishlari oshib borishini inobatga oladigan bo'lsak, yoshlar siyosati mamlakatimiz va Qurolli Kuchlarimiz uchun juda muhim ahamiyat kasb etishini teran anglaymiz.

Shunday ekan, muassasa rahbarlari, harbiy qism komandirlari va barcha mansabdor shaxslar mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatiga, yoshlarni qo'llab-quvvatlash ishlariga

daxldorlik hissi bilan yashashi, qism sharoitida bu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishga doir aniq vazifalarni belgilab olishlari talab etiladi. Ushbu vazifalar keng ko'lamli va serqirra bo'lib, ularni oliy harbiy ta'lim muassasalarining (OHTM) bitiruv bosqichida tahsil olayotgan va yaqin kunlarda o'qishni tamomlab, qo'shinlarga xizmat faoliyatini ofitserlik lavozimlarida davom ettirish uchun boradigan **yosh ofitserlarning misolida ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi**.

Oliy harbiy ta'lim muassasasini bitirib, birinchi ofitserlik unvoniga sazovor bo'lish, dastlabki xizmat lavozimini o'zlashtirish, boshqa ijtimoiy muhit, guruh va qatlamga ko'chish, yangi jamoada o'z o'mini topa olish va ko'p holatlarda mustaqil oila barpo etish har bir yosh inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan voqealardir. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan davr, zamonaviy qurolli mojarolar tajribasi va ofitser oldida belgilangan vazifalar qo'l ostidagi harbiy xizmatchining muntazam ravishda harbiy-kasbiy mahoratini ta'luming innovatsion metodlari va texnologiyalari asosida yanada rivojlantirishni, yosh mutaxassis sifatida xizmatning yangi sharoitlariga qisqa vaqtda moslashishni, shuningdek xizmat vazifalarini mustaqil ravishda to'laqonli bajarishga kirishishni taqozo etadi.

Buning uchun avvalo yosh komandirning ruhi baland bo'lishi, unda chin ma'nodagi Vatanga muhabbat va sadoqat hissi, zarur bo'lgan taqdirda o'z jonini fido qila olishdeki ruh shakkangan bo'lmog'i lozim. Yusuf Xos Hojib aytadiki, jang maydonida yuraksiz kishi keraksidir. Zotan yuraksiz, qo'rqaq kishi cherigni buzadi, buzuq lashkar jasur, mard askarlarni yo'ldan ozdiradi.

Askarlar boshida turgan kishining xulqi manzur, yumshoq, ko'ngli ochiq bo'lsa, u o'zini cherikka sevimli qiladi. Xushmuomala, shirinso'z lashkarboshilar askarlar ko'nglini isitadi, aksincha, qo'pol, johil rahbarlar qo'l ostidagilarni

o'zidan qochiradi, ularning ishonch va mehrini sindiradi.

Shu o'rinda Temur bobomiz tuzuklaridagi o'gitlar ham yodga tushadi. Amir Temur hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora niyatli, g'iybatchi, zulmkor, razil, xulqi buzuq kishilarni nihoyatda yomon ko'rgan. Mashhur tarixchi Ibn Arabshoh “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” asarida yozadi: “U hazil-mazax va yolg'oniyoqtirmas, o'inko'ngilxushlikka maylsiz, o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa ham, sadoqat unga yoqar edi. Jasoratlari, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. Utog'i fikrlovchi, ajoyib farosatlari, misliz baxtli, ulug'vorligi o'ziga muvofiq, qat'iy azm bilan so'zlovchi, boshiga kulfat tushganida ham, haqni aytuvchi kishi edi”. Bu e'tirof Temur qo'shinidagi **askarlarning jangovar ruhi nima uchun baland bo'lgani, uning har bir yurishi faqat g'alaba bilan yakunlangani sabablarini oydinlashtiradi**. Shunday ekan, milliy armiyamizning qudratli bo'lishi, himoyachi – qo'rg'onlarimizning **jangovar ruhi yuqori bo'lishi ko'p jihatdan komandir va boshliqlarning bilimi, tajribasi va albatta ularning insoniy fazilatlariga bog'liqdir**.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizning har bir yosh fuqarosi davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan yoshlarga ko'rsatayotgan e'tibori va g'amxo'rligiga javoban, avvalo ulug' ajodolarimiz kabi bir so'zli, qat'iyatlari va imoni butun bo'lib, bor kuch va shijoatlarini mustahkam bilimlarni egallashga, yetuk mutaxassis va komil inson bo'lib yetishishga safarbar etishlari, tanlagan yo'lidan og'ishmasdan, **Vatanimiz ravnaqi uchun uning manfaatlarining himoyasi yo'lida jonini ham fido qilishga tayyor bo'lishlari lozim**.

Zero yoshlar davlatimizning, yosh ofitserlar esa Qurolli Kuchlarimizning kelajagi, suyanchi va ishongan tog'idi.



Oilaviy nizolar – ajrimlarga olib kelish omillari sifatida

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi bu – farzand ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda Yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir.



Hozirgi kunda yurtimizdagagi millionlab oilalarning vakillari bo'lgan xotin qizlarning sa'y-harakatlari bois xonadonlarda har tomonlama sog'ilom ma'nnaviy muhit hukm surmoqda. Lekin shunga qaramay, oila buzilishi bilan bog'liq muammolarning borligiga ko'z yumib bo'lmaydi. Ya'ni asrlar davomida muqaddas saqlab kelayotganimiz – sharqona muomala va murosa qilish odobrlari borligiga qaramay, ularni chetlab o'tib, arzimagan sabablarni vaj qilib, ajrim bilan yakunlanayotgan oilalar mavjud.

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammoni turli soha mutaxassislar: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislar oilaviy munosabatlari, nizolarning kelib chiqish sabablari, oilaning buzilishi, uning salbiy oqibatlari va ajrimning ayollar, farzandlar ruhiyatiga ta'sirini o'rganmoqdalar. Ularning e'tborlari bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, oila buzilishlarining salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat ajralishgan er-xotin va farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajrimlar ko'plab noxush hodisalar, qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Oilaning buzilishi shakllari va sabablarda har bir davrda o'ziga xos asoslar bo'lgan deyish mumkin. Masalan, Sharq mamlakatlarda qadimdan oilaning buzilishi eng kam uchraydi, deb hisoblab kelingan.

Hozirgi ayollarimiz o'qimishli, oq-qorani tanigan kishilar, erkaklar bilan yonma-yon turib xizmat qilishadi, uyni ham, ishni ham eplashadi. Bundan jamiyatimizga ham, oilaga ham manfaat yetadi, albatta. Lekin oiladagi burchini, ayollik latofati, ayollarga xos iffat, nazokat, hayo-andishani unutib qo'yayotgan ayollar ham uchrab turadi. Oilaning buzilishi, bir yostiqqa bosh qo'yanlarning ajralishi hayotdagi eng noxush voqealardan biridir. Hech bir yigit-qiz ahd-u paymon bilan turmush quraytganda ajralishni ko'zlamaydi.

Oilaning buzilishi ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarliklarning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotin va qarindoshlarning o'zaro munosabatining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Oila buzilishi bu har bir insonning hayotidagi qattiq iztirob chekish holati va davridir.

Buning natijasida insonda, shu jumladan ayollarda ruhiy va jismoniy xastaliklarga duchor bo'lishi vujudga keladi. Shuni ta'kidlash joizki, oila buzilishidan ikki tomon – er-xotinning o'zagina ko'ngilsizlikka uchrab qolmaydi, balki bunda ko'proq oiladagi bolalar ozor chekadi.

Oilaviy hayotda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar muhabbat bilan chegaralanib qolmaydi, bunday ma'nnaviy hamfikrlik ham kerak, chunki oilaviy turmush vaqtinchalik ish emas, balki bir umr davom etib, turmushda er-xotin o'rtasidagi sadoqatning, shodlik va g'am-qayg'u daqiqalarida hamdardlikning sinovidir. Ayrim oilalar er-xotin munosabatlari yomonligi, nizolar chuqurlashuvi, zo'riqishlar keskinlashuvi tufayli buzilib ketishi mumkin. Albatta, ajralish hodisasi bu nikoh oila munosabatlari uchun ayanchli. Aynilsa, bunday hollarda oilada farzandlar bo'lsa, ular otasiz yoki onasis qolishadi. Oila buzilgandan so'ng har ikki tomonning ijtimoiy ahvoli keskinlashadi. Shuning uchun ham oila qurayotgan har bir shaxs buni chuqur anglab yetishi, boshqa bir shaxsning hayotini ham o'z javobgarligiga olayotganini his etishi kerak.

Ajrimlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlardan oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablari, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajrimgacha va undan keyingi davrlardagi er-xotinning ahvoli kabilarda ifodalananadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib, rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar va aksincha Yevropa xalqlarining oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq ayollar bo'ladi. Hozirgi kunda o'zbek oilalarida ham ajralishning tashabbuskori ayollar bo'lib qolmoqda.

Nikohning barbob bo'lishi shakllari ham, uning motivlari ham turfa xil. Ko'pgina xalqlarda ajrimning motivi sifatida er-xotinning xiyonati qayd etiladi.

Hayoti kuzatishlar nikohlarning bekor bo'lishi, ajrimning yuzaga kelishiga asosan quyidagi nizolarga olib keluvchi omillar sabab bo'layotganligini ko'rsatmoqda:

1. Kelin-kuyovlarning turmushiga otonalarning o'rnisz aralashuvi.
2. Kelinlarning yangi oiladagi sharoit bilan hisoblashmasligi.
3. Umr yo'l doshni ma'lum maqsadni ko'zlab tanlash.
4. Ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari.
5. Er-xotindan birining bevafoligi.
6. Oilada tenglik qonuniyatining buzilishi.
7. Uzoq muddat farzandsizlik.
8. Ayolning ma'nnaviy qarashlardan iqtisodni ustun qo'yishi.
9. Er-xotinning bir-birini tushunmasligi.
10. Narkotik moddalarni iste'mol qilishi.
11. Oilaga tashqaridan boshqa shaxslarning aralashuvi.
12. Oilada ma'nnaviy-axloqiy muhitning yomonligi.
13. Yoshlarni turmush qurishga psixologik jihatdan tayyor emasligi.
14. Xiyonat.

Ajrimning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablari, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajralishgacha va undan keyingi davrlardagi er-xotinlarning ahvoli

kabilarda ifodalananadi. Ba'zi yoshlар ajralishni "ozodlik" deb hisoblaydilar, lekin nikoh – oila qonunchiligiga ko'ra, bu "ozodlik" noto'liq oilani yuzaga keltiradi. Buning oqibatida er-xotinning ajralishi sabablari yuzaga kelgan noto'liq oilalarda "tirik yetim" bolalar qoladi. Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik Blum oila buzilishi tufayli yuzaga keladigan oqibatlarning ajrashgan sobiq er-xotinlarga, aynilsa ayollarga ta'siri ikki yo'nalishda bo'lish ehtimolini ta'kidlaydi.

Birinchidan, yolg'izlikni his qilish boshlanadi, o'zining xatti-harakatlaridan o'zini gunohkor deb hisoblaydi. O'z shaxsiyatini kamsitib baholash holatlari kuzatiladi. Muallifning fikricha, ajralishdan keyingi birinchi bosqichda qiyinchilik asosan, iqtisodiy va psixologik tushkunlikka tushish hollari ko'rinadi.

Ikkinchidan, keyingi bosqichda bir necha oyldan so'ng boshlanib, ruhiy tanglikka tortilish ko'rsatkichi oshib boradi va tushkunlikka tushish holati yuzaga keladi.

S. Kraxotvil oila buzilishining quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bosh ko'tarish bosqichi: xo'rangan yoki eri bilan birkalikdagi turmushidan ko'ngli to'lmayotgan ayol o'z faolligini oshirib, tashabbus ko'rsatib, ajrim sodir bo'imasligini oldini olish uchun muayyan sa'y-harakatga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotir va hayajon bilan amalga oshirgani sababli, ko'p xatolarga yo'l qo'yadi va noma'qul ishlarni qilib qo'yadi.

2. Tushkunlikka tushish bosqichi: oila buzilishini xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganimi tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi va endi o'zini ham ayblamay qo'yadi.

3. Bo'yniga olish bosqichi: ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo'lmagani ma'qulligi haqida to'xtamga keladi.

Ko'pchilik olimlarning ta'kidlashicha, oila buzilishi oqibatlari ko'proq iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holat sobiq er-xotinlar o'rtasida, aynilsa o'rtadagi mulkn bo'lish hamda oilaviy byudjetdagi o'zgarishlar tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklardir. Bu yerda ham asosiy e'tibor ayollar bilan erkaklar o'rtasida katta farq borligiga qaratilgan. Ajralishgan erkaklarda ko'p hollarda ahvol o'zgarishsiz qolsa, jiddiy ruhiy va moddiy qiyinchiliklarga olib keladi.

Man shu obyektiv sabablarni hisobga olgan holda, o'zbek ayollar muammoli nikohga ham ko'nikib, birga hayot kechiraveradilar. Ba'zi ayollar oilasi buzilgandan so'ng eri bilan birga yashamasda, undan o'ch olish maqsadida boshqaga uylanmasligi uchun rasmiy ravishda sud orqali ajralishga yo'l qo'yayotilar. Lekin hayotda shunday ayollar ham uchraydiki, oila buzilishining ayollar ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi natijasida ko'pincha ular qayta oila qurish haqida o'ylashni xohlamaydilar, butun vaqtini ish bilan o'tkazishga va farzandlarini tarbiyalashga harakat qiladilar.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, oilada er-xotinning o'zaro munosabati, bir-birini tushunishi, hurmat qilishi, oiladagi nizoli holatlarning oldini olish va shu kabilar ajrim va oila buzilishining oldini oladi va mustahkamligini ta'minlaydi.

**Asliddin HAYDAROV,
Toshkent harbiy okrugi
harbiy qism harbiy psixologi**



*Moziya yuzlan-u bir dam qil sukut,
Ajodolar ruhiga et ta'zim bajo.
Zero yurt deganlar bo'lmagay unut,
Jo'mard farzandlarga mangulik ato.*

Mustaqillik! Sen millatga jon, Vatanga shon berguvchi shunday ne'matsanki, seni asrashga, poyingga jon berishga botir-u bahodirlar shay turadi. Mustaqillik! Sening bahri ummoningda unib-ulg'aygan farzandlar qaddi baland, ko'ksini qad tutadiki, ularga olam ahli havas ila boqadi, ular erk va ozodlikni umrlaridan-da aziz ko'radi. Vatan hurligi uchun jonini nisor etmoqni baxt deb biladi.

Ming shukurki, mustaqilligimiz 33 yoshga qadam qo'ydi. Uning bardavomligi, beshikast-u beziyon qad rostlashi yo'lida ne-ne bahodirlar, mard-u maydonlar fidoyilik ko'sratmadi deysiz. Bularning safida tinchligimizga, hurligimizga chang solmoqchi bo'lgan mal'unlar sabab, umri erta zavol topgan o'g'lonlarimiz ham yo'q emas. Sariosiyo va Uzun tumanlardagi harbiy harakatlarda mardlarcha halok bo'lgan Vatan himoyachilar bunga misol bo'la oladi. Bugun ularning aziz nomi Vatan tarixiga, millat ko'ksiga mangulikka muhrlangan. Shunday azamatlardan biri "Jasorat" medali sohibi, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Farhod Abdullayev.

SURXONNING ALPOMISH O'G'LONI

Alpomishlar yurti bo'lmish Termiz shahrida voyaga yetgan yigit endigina to'qqiz yoshni qarshilayotgan mustaqilligimizni asrash yo'lida jon taslim etganida 22 yoshda edi. Mana, shunga ham yigirma uch yil bo'ldi. Biz bejiz bu sanalarni yodga olmadik. Chunki Farhod kabi dovyurak, fidoyi o'g'lonlarimiz sabab ozodlik kaftida olamga bo'ylayotgan Vatanimiz bugun turonzaminning istiqboli nurli davlatlari qatorida qad kerib turibdi. Bu e'tirofda shubhasizki, Farhodjonning ham ulushi tengsiz. Eng asosiysi, uning aziz nomi, xotirasni qalblar to'rida yashamoqda. U kamolga yetgan oila, u ulg'aygan mahalla, u tahsil olgan maktab, u xizmat qilgan harbiy qismi, bir so'z bilan aytganda mard o'g'lonning izi qolgan har bir joyda unutmas nomi, barhayot xotirasni bor.

Farzandning kelajagi oiladan boshlanadi. O'g'il-qizlarning sog'igom unib-o'sishidan tortib, barkamol ulg'ayishiga qadar ota-ona fidoyilik ko'rsatadi, zahmat chekadi, istiqboliga nurli orzular bog'laydi. Qahramon o'g'lonimizning ota-onasi Shoazim aka va Bibigul opa ham ezgu orzular ila dunyoga keltirgan o'g'illarini dostonlardagi Farhod yanglig' zabardast, tog'ni talqon etishga qodir yigit bo'lsin, deya ismini Farhod deb atashgan bo'lsa ajabmas. Shunday bo'ldi ham. Yurtni asrash yo'lida jasorat ko'rsatib jon taslim qilgan yovqur farzandlarining nomi bugun mustaqilligimiz bardavomligiga umrini nisor etgan jasur o'g'lonlar qatorida tarix zarvaraqlaridan joy olgan.

QALBGA YAQIN XOTIRALAR

Men Farhodjon ulg'aygan xonadonda avval ham bo'lganman. O'zbekona xonadon, kamtar, samimi insonlar. Bu oilada uch farzand voyaga yetgan: ikki o'g'il va bir qiz. To'ng'ich o'g'illaridan ayrib, bag'ri ezelgan ota-onaning quchog'i bugun kichik o'g'illari To'xtamurod va qizlari Umidaxonning farzandlari bilan to'kin. Hayotdan bevaqt ko'z yumgan Farhodjon sabab uni xotirlash uchun Shoazim aka va Bibigul opalar ziyyaratiga yor-u birodarlar tez-tez tashrif buyurib, xonadon mehmoni bo'lishadi. O'rtadagi suhbat har gal Farhodjon bilan bog'liq yorqin xotiralarga ulanadi.

– Farhodjon o'g'limni esladim deguncha, uning bolalik chog'lari yodimga tushaveradi, – deydi qahramon yigitning validayi muhtaramasi xotiralarga berilib. – U bolalik chog'ida ham juda zukko bo'lgan. Bir gal Honjizza dam olish maskaniga borganimizda, bolalar o'rtaida rasm chizish musobaqasi bo'ldi. Farhodjon o'shanda to'qqiz yoshlarda edi. U ham bolalar qatorida rasm chizib, birinch o'rinni oldi. O'shanda harbiy raketa chizib, ustidan chiziqlar tortib qo'ygandi. Ya'ni urush bo'imasligini istagandi. Qarangki, yillar o'tib,

Mardlar siymosi mangulikka musharraf



yurt tinchligini asrashga bel bog'lagan harbiy xizmatchi bo'ldi. U oliy ma'lumotli bo'lishni juda istardi. Universitetga hujjat topshirib kira olmagach, uning qoshidagi biznes mактабда bir yil tahlil oldi. O'g'lim kitobni sevardi. Ishonasizmi, harbiy xizmatchi bo'lishni maqsad qilganida Yurtboshimizning kitoblarini kechasi bilan o'qib chiqardi. Keyin sportga bo'lgan qiziqishi yuqori edi. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni kanda qilmasdi.

Bolaligidan ulg'aygunga qadar, Farhodjonning orqasidan biror marotaba nojo'ya so'z eshitmadik, eldan, ustozlardan, komandirlaridan faqat rahmat oldik. Ta'bi nozik, og'ir, vazmin edi u. O'quvchilik davrlarida ham kiyimlariga juda e'tiborli bo'lgan. Harbiy libosini esa juda avaylardi. Bir gal uya kelganida yoqasiga qo'yilgan oq matoni qarshilik qilishiga qaramasdan tikib berdim. Qarangki, xizmat joyiga borgan zahoti yoqasini o'zi tikmaganligini o'rtoqlari darhol sezishibdi. Qo'lidan igna tushmaydigan mendek aylol ham o'g'limchalik tika olmabman. Aytmoqchimani, Farhodjon har bir ishga boshqacha yondashardi, chunki o'zi boshqacha bola edi. Farzand dog'i og'ir, ammo bolam el-yurtimizni asrash yo'lida jon berdi. Undan ayrilganimizga 23 yil bo'ldi. Mana shu yillar davomida bizdan nafaqat uning do'stlari, balki harbiy qismalar, o'quv dargohlari, shahar mudofaa ishlari bo'limidan xabar olib turishadi. 2018-yilda Prezidentimiz qarori bilan Termiz shahridagi Farhodjon o'qigan 12-umumta'l'm mактабига byusti o'natildi, xotira burchagi tashkil qilindi. O'qituvchi va o'quvchilar tez-tez xonadonimiz mehmoni bo'lishadi. Davlatimiz tomonidan ham e'tibordamiz. Yaqinda "Botanika" sihatgohida dam olib keldik. Gospitalda davolani turamiz. Faqat bitta armonim, bolam to'y ko'rmasdi. Sevgan qizi bor edi, to'yiga atalgan, kelinimga deb olingan sarpolar sandiqda qoldi...

Goho o'ksik jilmayib, goho ko'zlar yoshga to'lib xotiralar so'zlayotgan onaning dil armonlarini tushunsa bo'ladi. Axir farzand onaning vujudidan yaraladi. Suhbatlashish asnosida xonadondagi mehmonxonaning to'ridan joy olgan xotira

burchagi bilan tanishdik. Farhodjonning harbiy liboslari, bolalig-u yigitlik davridagi rasmlari, o'qigan kitoblari, davlat mukofoti va maqtor yorliqlari. Ya'ni "Jasorat" medali, Qurollı Kuchlarimizning 15 yilligi, 20 yilligi va 30 yilligi ko'krak nishonlari. Bularning barchasi ushbu oliga tashrif buyurgan mehmonlarga qahramon yigit haqida yorqin xotiralar so'zlaydi. Shu asnodda Farhodjonning quroldosh do'sti serjant Oqil Xolmurodov xotiralariga qulog tutamiz:

– Men xizmat faoliyatim davomida ko'plab do'star orttirdim. Ular orasida do'stim Farhodning alohida o'rni bor edi. U tirishqoqligi, dunyoqarashining kengligi bilan hammamizdan ajralib turardi. Farhodning harbiy mashg'ulotlardagi bilimdonligi, chapdastligi, tez va to'g'ri qaror qabul qilishi komandirlarimiz tomonidan doim yuqori baholanardi. 2000-yilning 18-avgusti aslo xotiramdan ko'tarilmaydi. Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida xalqaro terrorchilarni batamom yo'q qilish maqsadida amalga oshirilayotgan qidiruv va tozalash operatsiyasi davomida Farhod o'zining professional harbiy xizmatchi ekanini ko'rsatdi. U jang maydonida shunday harakat qildiki, o'q otish pozitsiyasini tez-tez o'zgartirar, ya'ni bir joydan ikkinchi joyga ko'chishini hech kim payqamasdi. Shunday harakatlardan birida Farhod bosqinchi gazandalar bilan yuzma-yuz kelib, ularga qaqshatqich zarba berdi. Afsuski, o'zi ham jangda og'ir yaralandi va jang maydonida qahramonlarcha halok bo'ldi. Uning xotirasi hamisha biz bilan. Uning jasoratini avlodlar unutmasligiga, xotirasi ilo barhayot ekaniga ishonaman.

Farhodjon Abdullayev ulg'aygan xonadondan qaytar ekanmiz, Bibigul opaning bir so'zi qulog'im ostidan nari ketmaydi, "Farhodjon bilan so'nggi nafasida birga bo'lgan o'rtoqlarini ko'rgim kelaveradi. Ularni ko'rsam, bolamga bo'lgan sog'iinchim, ayrılıq dardi oz bo'lsa-da yengillashadi, ko'nglim taskin topadi deb o'ylayman-da". Ha, bu mehmondo'st xonadon Farhodjonning do'stleri va safdoshlariga hamisha intiq, ota-onaning bag'ri yo'qlovchilar uchun hamisha ochiq. Negaki, bu aziz go'shada qahramon yigitning o'chmas xotirasi yashaydi.

Xitoyning Tayyuan shahrida taekvondoning WT yo'nalishi bo'yicha "G6" tasnifiga kiruvchi Gran-pri turniri o'tkazildi. O'zbekiston terma jamoasi mazkur musobaqani bitta kumush va 3 ta bronza medal bilan yakunladi. Medallarning 3 tasiga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivoilantirish markazi (MVSM) vakillari erishdi.

TAEKVONDO CHILARIMIZ YANA MUVAFFAQIYAT QOZONDI

Terma jamoamiz hisobiga ilk medalni "Xanchjou – 2022" yozgi Osiyo o'yinlarida ham shohsupaga ko'tarilgan Madinabonu Mannopova keltirdi. -49 kg vazn toifasida medallar uchun kurash olib borgan terma jamoamiz a'zosi musobaqa davomida turkiyalik Rukiye Yildirim, marokashlik Omayma El Buchti hamda saudiyalik Dunya Ali Abutalebni mag'lubiyatga uchratib, yarim finalga yo'llanma oldi. Ammo Madinabonu yarim finalda xitoylik raqibiga imkoniyatni boy berdi va musobaqani bronza medal bilan yakunladi. Sportchimiz yaqinda yakuniga yetgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida ham 3-o'rinni egallab, bronza medalga sazovor bo'lgan edi. Musobaqaning ayollar o'rtasida kechgan bahslarida Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Svetlana Osipova (+67 kg) ham qatnashdi. "Xanchjou – 2022" yozgi Osiyo o'yinlarining bronza medalini qo'lga kiritgan taekvondochimizga Gran-pri turnirida omad kulib bogmadi.

"Tokio – 2020" yozgi Olimpiya o'yinlari hamda "Xanchjou – 2022" yozgi Osiyo o'yinlari championi Ulug'bek Rashitov (MVSM) Tayyuan Gran-pri turnirida ham sovrindorlar safidan joy oldi.

-68 kg vazn toifasida dayanga chiqqan armiyamiz sportchisi mo'g'ulistonlik Buyanshagi Enbold, eronlik Matin Rezai hamda xorvatiyalik Marko Golubichni mag'lubiyatga uchratdi. Janubiy koreyalik taekvondochiga qarshi kechgan yarim final bahsida esa Ulug'bekdan biroz omad yuz o'girdi va mazkur nufuzli musobaqaning bronza medali bilan kifoyalandi.

Qizig'i, Ulug'bek bu yil Ozarbayjonda o'tkazilgan jahon championatida ham bronza medal sohibiga avlangandi.

-80 kg vazn toifasidagi ikki nafar taekvondochimiz – Jasur Jaysunov (MVSM) va Shuhrat Salayev Gran-pri turnirining qur'a natijalariga ko'ra, birinchi davradayoq o'zaro to'qnash kelishdi. Ushbu bahsda armiyamiz sportchisi 2:0 hisobida g'alaba qozondi. Shundan so'ng ham Jaysunov musobaqaning yarim finaligacha muvaffaqiyatli odimladi. Ammo jamoadoshi Rashitov kabi finalga chiqish bahsida janubiy Koreyalik sportchiga imkoniyatni boy beri bronza medal bilan kifoyalandi. o'tamiz, MVSM vakili Jasur Jay XIX yozgi Osiyo o'yinlarida ham medalga sazovor bo'lgandi.

Xitoya o'tkazilgan taekvondo WT bo'yicha Gran-pri turnirida sportchilarimiz orasida eng yaxshi natijaga "Xanchjou – 2022" yozgi Osiyo o'yinlarda sovrindorlar safidan joy ololmagan MVSM vakili Nikita Rafalovich erishdi. Eng og'ir (+80 kg) vazn toifasida dayanga chiqqan armiyamiz sportchisi finalga qadar tunislik Motaz Ifauyi, xitoylik Jaoxiang Song, koreyalik Chan Hui Park hamda xorvatiyalik Ivan Sapinani mag'lubiyatga uchratdi. Hal qiluvchi final bahsida Nikita Rafalovichqa "Tokio – 2020"



yozgi Olimpiya o'yinlari g'olib rossiyalik Vladislav Larin raqiblik qildi. Murosasiz kechgan jangda rossiyalik taekvondochi 1:2 hisobida ustun keldi va hamyurtimiz kumush medal bilan taqdirlandi.

Shu tariqa, O'zbekiston terma jamoasi Xitoyning Tayyuan shahrida o'tkazilgan taekvondoning WT yo'nalishi bo'yicha "G6" tasnifiga kiruvchi Gran-pri turnirini bitta kumush va 3 ta bronza medal bilan yakunladi.

Xitoyning Tayyuan shahrida para taekvondo bo'yicha ham Gran-pri turniri o'tkazildi. 30 ga yaqin davlatdan 100 nafardan ortiq para taekvondochi ishtirok etgan xalqaro turnirda O'zbekiston terma jamoasi a'zolari bitta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza, jami 6 ta medalga sazovor bo'ldi. Hamyurtlarimizdan Guljanoy Naimova oltin, Asad Anvarov va Asad Toshtemirov kumush, Ziyoda Isoqova, Javohir Aliqulov hamda Zuhiddin Tohirov bronza medalni qo'lliga kiritdi. O'zbekiston

muvaqqatiyati 22-oktabr kuni
boshlanadigan IV yozgi Paraosiyon
o'yinlariga tayyorgarlikning so'nggi
bosqichi bo'ldi.

Eslatib o'tamiz, to'rt yillik kompleks o'yinlari Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkaziladi.

slar qit'aning 40 dan
ziyod davlat para
sportchilari
ishtirokida
28-oktabrga qadar

davom etadi.
Yurtimizning
108 nafar
vakili IV yozgi
Paraosiyo
o'yninlarining
11 ta sport
turi bo'yicha
bahslarida
qatnashib,
Vatanimiz
sport sharafini
himoya qiladi.

SHOHSUPA

(xabarlar)

QILICHBOZLIK

“Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlari uchun ochkolar taqdim qiluvchi “Satellite” tasnifiga kiruvchi navbatdagi turnirlar O‘zbekiston va Gruziyada o’tkazildi. Qilichbozlikning sablyo yo‘nalishi bo‘yicha bahslari Tbilisi shahrida tashkil etilgan bo‘lsa, rapira quroldagi bahslarga Toshkent shahri mezonlik qildi. O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi Sherzod Mamutov Tbilisida kechgan bahslarda bronza medalni qo‘lga kiritdi. Muxlislarimiz MVSM vakili Zaynab Dayibekovadan ham yaxshi natija kutishgandi. Lekin unga avvaldan olgan jarohati pand berdi. Rapira yo‘nalishi bo‘yicha Toshkentda kechgan bahslarda esa O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari shohsupaga ko‘tarila olmadi. Ular orasida eng yaxshi natijani MVSM vakili Muhammad Yusuf Asranov qayd etdi – chorak finalgacha muvaffaqiyatli odimladi.

BELBOG'LI KURASH



Tojikistonning Xo'jand shahrida belbog'i kurash bo'yicha 2003-2004-yillarda tug'ilgan yoshlar o'ttasida jahon championati o'tkazildi. 21 ta davlatning 300 ga yaqin sportchisi o'ttasida kechgan bahslar yakunida O'zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Bosh murabbibi Baxtiyor Turg'unpo'latov yetakchiligidagi terma jamoamiz a'zolari murosasiz bellashuvlar yakunida 12 ta oltin, 3 ta kumush va 15 ta bronza medalni go'lqa kiritdi.

VOLEYBOL



 O'zbekiston erkaklar terma jamoasi Shri-Lankada bo'lib o'tgan "CAVA Men's volleyball challange cup Colombo – 2023" turnirida kumush medalga sazovor bo'ldi. Qizig'i, saralash bosqichida mezbonlarni 3:2 hisobida mag'lub etgan terma jamoamiz finalda yana ularga to'qnash keldi va bu safar Shri-Lanka 3:0 hisobida g'alaba qozondi. Terma jamoamiz a'zolaridan Mirziyod Murodov "Eng yaxshi to'p uzatuvchi", Azizbek Qo'chqorov esa "Eng yaxshi blokchi" nominatsiyasida q'olib deb topildi.

PROFESSIONAL BOKS



Yoshlar oʻrtasida 2021-yil jahon championi, 2023-yil Osiyo championi boʻlgan 20 yoshli charm qoʻlqop ustamiz Jahongir Zokirov professional boksdagi faoliyatini boshladi. Eng ogʻir vazn toifasidagi bokschimizga AQShning Texas shtatida tashkil etilgan professional boks kechasida mezbonlar vakili Gilyermo Daniel Del Rio Ernestes raqiblik qildi. Murosasiz kechgan jang 4-raundda toʼxtatildi – oʻzbek oʻgʻloni raqibini texnik nokautga uchratdi

FUTBOI



 O'zbekiston milliy terma jamoasi xalqaro o'rtoqlik uchrashuvி doirasida Xitoy bilan kuch sinashdi va 2:1 hisobida g'alaba qozondi. 41-daqiqada xitoy vakili Vey Shixao hisobni ochgan bo'lsa, 78-daqiqada Otabek Shukurov muvozanatni tikladi, 86-daqiqada Jamshid Iskanderov terma jamoamiz q'alaba to'pini kiritdi.

* * *

O'zbekiston olimpiya terma jamoasi esa "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini naqd qilib bo'lgan Ispaniya va Misr yoshlar terma jamoalariga qarshi Toshkentda o'rtoqliq o'yini o'tkazdi. O'zbekiston U-23 – Ispaniya U-21 termalari o'rtasidagi uchrashuvda hisob ochilmadi – 0:0. O'zbekiston U-23 – Misr U-23 termalari o'rtasidagi o'yinning 57-daqiqasida hakam futbolchimiz Mahmud Mahammadjonovga qizil kartochka ko'rsatdi. Shundan so'ng uchrashuvda mehmonlar g'alaba qozondi – 1:2. 2-taym boshida Hojimat Erkinov raqib darvozasini 2-marta ishg'ol etdi, lekin... bu gol "ofsayd" sabab bekor qilindi. Gol mualliflari: Alisher Odilov (23-daq.) – Bilol Mazher (73-daq.), Ziyad Muhammad (90-daq.).

Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qism sport zalida tashkillashtirilgan qo'l jangi bo'yicha championatning 2023-yilgi g'olib va sovrindorlari aniqlandi. Mudofaa vazirligi qo'shinlari harbiy xizmatchilari va oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari qatnashgan musobaqa odatdagiga ko'ra 8 vazn toifasida jamoaviy hamda shaxsiy birinchilik bo'yicha o'z yakuniga yetdi.

KUBOK janubliklarga nasib etdi

Sovrinli o'rnlarga da'vogarlik qilgan 250 nafarga yaqin qatnashchi uch kun davomida mazkur sport turi muxlislari uchun bir-biridan qiziqarli va murosasiz kurashlarga boy janglarni taqdim etdi. Bahslar 57, 62, 67, 73, 80, 88, 97, +97 kg vaznlarda tashkillashtirilib, 24 nafar harbiy xizmatchi musobaqaning oltin, kumush va bronza medallariga sazovor bo'ldi.

Championat tashkiliy qo'mitasi a'zosi podpolkovnik Davlat Vahobovning ta'kidlashicha, musobaqa uzoq yillardan buyon o'tkazib kelinadi va asosiy e'tibor harbiy xizmatchilarning jangovar, jismoniy imkoniyatlарини оshirishga qaratilgan. Bundan tashqari, championat g'olib va sovrindorlari kuch tuzilmalarini o'tasida o'tkazildigan Qurolli Kuchlar championati yo'llanmasini qo'iga kiritish bilan birga, noyabr-dekabr oylarida Qozog'iston Respublikasi mezonlik qiladigan xalqaro turnirga saralab olindi.

Musobaqaning yopilish marosimida g'olib va sovrindorlarga diplom, medallar hamda esdalik sovg'alar tantanali tarzda topshirildi. Jamoaviy hisobda musobaqaning bu yilgi kubogi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasiga nasib etdi.

Asror RO'ZIBOYEV
«Vatanparvar»



✓ OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Harbiy qismda bir kun

Milliy armiyamizda harbiy-vatanparvarlik tadbirlarining ko'plab o'tkazilishi va ularda yoshlarning ishtiroy etishi o'sib kelayotgan yosh avlodni Vatan himoyasiga bo'lgan qiziqishi ortishiga, yurtga muhabbat tuyg'usi bilan ulg'ayib, komil inson bo'lib yetishishiga o'z hissasini qo'shamoqda.



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz garnizonidagi umumqo'shin dala poligonida joylashgan harbiy qismda ochiq eshiklar kuni tashkil etildi. Unda Termiz shahridagi Prezident maktabi o'quvchi-yoshlari ishtiroy etdi.

Yoshlar harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, kutubxona, o'quv sinflari, trenajyor xonalari, yotoqxona, oshxona va sport maydonlari bo'ylab ekskursiya qildi. Ekskursiya davomida turli sport musobaqlari ham o'tkazildi. Bir so'z bilan aytganda, mana shu bir kun Prezident maktabi yoshlari uchun yurt posbonlarining xizmat faoliyatları bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Shundan so'ng yoshlarga harbiy liboslar tarqatildi va ular dala maydonida harbiy xizmatchilar nazorati ostida jangovar quollardan o'q otish mashqlarini bajardi. Ochiq eshiklar kunining yakunida o'quvchilar bilan vatanparvarlik soati o'tkazildi.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

Har bir millatning jahon sivilizatsiyasida egallagan o'mni uning ma'naviyati, tarixi, ona tili bilan o'lchanadi. Turkiy tilni ilk bor ilmiy asosda tadqiq etgan buyuk alloma Mahmud Koshg'arij bejiz "Erdam boshi tildur", ya'ni "Barcha ezguliklar tildan boshlanur", deya talqin etmagan.

Barcha ezguliklar tildan boshlanur

Shunday ekan, har bir yurtdoshimiz o'zbek tili taraqqiyotiga hurmat ko'satishi, uni avaylab-asrashi, asrlar davomida sayqallanib kelgan boy merosidan xabardor bo'lishi shart. Ayniqsa, mustaqillik tufayli tilimizga davlat tili maqomi berilgan jarayonda bu har bir fuqaroning burchi ekanligini ta'kidlash o'rini.

Har yili 21-oktobr o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida respublikamizning barcha hududlarida keng miqyosda nishonlanadi. Jumladan, harbiy qismlar, harbiy ta'lif maskanlari va muassasalarda ham.



Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qismida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari, shahardagi 7-umumta'lim maktabi o'quvchilar ishtirokida tashkillashtirilgan tadbir shular jumlasidandir. Seminar tarzda o'tgan tadbir davomida harbiy xizmatchilar, talabalar, Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek adabiyoti va tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi Gulshoda Tojiboyeva o'z ma'ruzasi bilan chiqish qildi. Ma'ruzachilar yig'ilganlar e'tiboriga

o'zbek tili etimologiyasi, adabiy normalari, atamashunosligi kabi mavzularda muhim ma'lumotlarni yetkazdi.

Til bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan seminar adabiy kecha tarzida yakunlanib, unda taniqli adiblarning asarlaridan parchalar, she'rlar o'qildi. Harbiy xizmatchilar va tadbir mehmonlariga bayram sovg'asi sifatida kitoblar taqdim qilindi.

A. RO'ZIBOYEV

MA'NAVIYAT

"ABDULLA ORIPOV" badiiy filmi taqdimoti

Buyuk shoir yuz yilda bir tug'iladi, deyishadi. Bu dono xalq aytgan ayni haqiqatdir. O'zbekiston Rahramoni, O'zbekiston xalq shoiri, jamoat arbobi Abdulla Oripovni mana shunday ulug' e'tirofga tuyassar bo'lgan buyuk shoir, desak, haq gapni aytgan bo'lamic. Ustoz shoir muallifligida yaratilgan O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi dunyo bo'ylab jaranglayotganiga guvohmiz.



Kamdan kam ijod ahliga uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy film yaratish nasib etgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ustoz shoir haqida badiiy film olinishi uning ijodi va bosib o'tgan yo'li mangulikka daxildor ekanidan dalolat. O'ndan ziyod filmi bilan muxlislar e'tirofiga sazovor bo'lgan taniqli kinorejissyor Muzaffar Erkinov tomonidan suratga olingan badiiy film kino ixlosmandlari qalbidan joy olishiga shubha yo'q.

Mustaqilligimiz ayyomi arafasida "Abdulla Oripov" badiiy filmining ilk taqdimoti Kinochilar uyida xalqimizga namoyish etildi. Badiiy filmning yana bir taqdimoti esa Mudofaa vazirligi markaziy apparatida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda bo'lib o'tdi. "Abdulla Oripov" filmini tadbir ishtirokchilari hayajon va qiziqish ila tomosha qildi.

Dastlab katta yig'inlar zalini to'ldirib o'tirgan Vatanimiz posbonlari filmning asosiy ishtirokchilari va mehnomlarni gulduros qarsaklar ila qarshi oldi. O'zbekiston xalq artisti Gulchehra Jamilova, film rejissoryi Muzaffar Erkinov, Abdulla Oripov rolini ijo etgan shoir Shodmonqul Salom, shoiring rafiqasi Xanifa Mustafayeva, qizi Ruxsora Oripova hamda Yozuvchilar uyushmasi bo'lim boshlig'i Ma'mura Zohidova davra to'ridan joy oldi.

Tadbir ishtirokchilari birin-ketin so'z olib, film yaratilishi bilan bog'liq qiziqarli voqealarga to'xtalib o'tdi. Film zahmatli mehnat ila yaratilganiga alohida urg'u berildi. Va albatta, ulug' shoir ijodidan misralar yangradi. Quvonarli jihat, film rejissoryi ta'kidlab o'tganidek, "Abdulla Oripov" badiiy filmi Ozarbayjon Respublikasining Baku shahrida o'tkazilgan xalqaro kinofestivalning "Eng yaxshi ssenariyu" yo'nalihsida g'oliblikni qo'liga kiritib ulgurdi. Bu, albatta, ushbu filmning ilk qadami e'tirofi. Filmning katta xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, yuqori o'rnlarni qo'liga kiritishi hali oldinda, albatta.

Tadbirda so'z olgan Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshqarma boshlig'i podpolkovnik Mehriddin Qo'chqorov film ishtirokchilariga harbiy xizmatchilar nomidan o'z minnatdorligini bildirdi va esdalik sovg'alar topshirdi.

O'z navbatida, shoiring turmush o'rtoq'i Xanifa Mustafayeva Abdulla Oripovning matbuotda e'lon qilinmagan she'rlaridan tuzilgan yangi kitobi hamda shoirga bag'ishlab muxlislari tomonidan yozilgan she'rlar to'plamini vazirlilik kutubxonasiga taqdim etdi.

FORUM

Sarhisob

Chirchiqda Toshkent harbiy okrugi harbiy qism hamda muassasalari xotin-qizlar va harbiy xizmatchilar oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislarining forumi o'tkazildi.



Unda shu kungacha harbiy xizmatchilar oila a'zolarining siyosiy faoliigini oshirish, ularni ijtimoiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini, ahamiyatini keng targ'ib qilish, oiladagi iqtisodiy holat, bandlik, farzandlar ta'lif-tarbiysi, nogironligi bo'lgan oilalarini ijtimoiy himoyasi kabi masalalar bo'yicha olib borilgan ishlar sarhisob qilindi. Bu boradagi yutuqlar e'tirof etildi, "Ustoz-shogird" an'analarini davom ettirgan holda kamchiliklarni bartaraf etish borasida tajribali ustozlar tomonidan ko'rsatmalar berildi.

Tadbirning ikkinchi yarmi qiziqarli savol-javoblarga boy tarzda o'tdi. Kundalik hayotda uchrab turadigan, tezkorlik bilan vaziyatdan chiqib ketishni taqozo qiladigan masalalardan tuzilgan savollar ishtirokchilarining kutilmagan holatlarda o'zini yo'qotmay qanchalik bilim va tajribaga tayanib ish ko'rishini namoyon qildi.

Shuningdek, forum davomida ishtirokchilarining hisobot ma'ruzalari ham sohani rivojlantirish bo'yicha takliflari ham tinglandi.

Z. YUNUSOVA

Odina ODILOVA,
Toshkent harbiy okrugi
yetakchi mutaxassis

✓ "USTOZ-SHOGIRD"

An'anaga xos uchrashuv

Mudofaa vazirligi yong'in xavfsizligi xizmati yo'nalishida harbiy xizmatni o'tab, bugungi kunda faxriy maqomiga erishgan nuroniyalar ishtirokida uch avlod uchrashuvi bo'lib o'tdi.



"Ustoz-shogird" an'anasa xos "Kecha va bugun" shiori ostidagi tadbir mehmonlarning "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga tashrif bilan boshlandi. Faxriylar "Shonsharaf" davlat muzeysi, majmualar va yodgorliklar bilan tanishdi. Shundan so'ng Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qismlarning birida yong'in o'chirish komandalari shaxsiy tarkibi bilan uchrashuv o'tkazildi. Ochiq va samimiy muloqtda ular o'zlarining xizmat davridagi qiziqarli voqealarni eslashdi. Ustozlarning o'z tajribalari asosidagi o'gitlari yosh harbiy xizmatchilarga chinakam saboq vazifasini o'tadi.

Yong'in o'chirish ekipajlari tomonidan yong'in o'chirishdagi jangovar yoyilish mashqlari, innovatsion yong'in o'chirish usullari ko'rgazmali tarzda namoyish etildi.

Bunday uchrashuvlar yaqin o'tmisht va hozirgi davr imkoniyatlari, shart-sharoitlari, shu jumladan yuqori qo'mondonlik tomonidan sohaga berilayotgan e'tiborni hayotiy misollar orqali qayd etilishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Masalan, harbiy qism va muassasalarining zamonaviy yong'in o'chirish avtomobil texnikalari hamda anjomlari, bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi tizimlari bilan jihozlanayotgani shular jumlasidan.

Uchrashuv yakunida faxriylarga O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining tashakkurnomasi o'qib eshittirildi hamda esdalik nishonlar, sovg'alar topshirildi.

**Podpolkovnik Zokir KENJAYEV,
Mudofaa vazirligi yong'in xavfsizligi xizmati boshlig'i**

✓ HUQUQIY PROFILAKTIKA

"Biz korrupsiyaga qarshimiz"

Qarshi harbiy prokururatura va Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinchilari qo'mondonligi hamkorligida "Biz korrupsiyaga qarshimiz" shiori ostida tadbir tashkil etildi.



Unda harbiy prokuratura xodimlari, okrug qo'shinchilari qo'mondonligi boshqaruva apparati ofitserlari, Respublika va Qarshi harbiy sudi vakillari ishtirok etdi.

Sozga chiqqanlar korrupsiya tushunchasi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuning mazmuni, korrupsiyaviy jinoyatlar, bu illatga qarshi kurashish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning mohiyati xususida atroficha tushuntirishlar berib o'tdi.

Muloqtda mas'ullar tomonidan korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda amaliy faoliytki oshirishga doir dolzarb masalalarda o'zaro fikr-mulohazalar almashildi.

**Adliya podpolkovnigi Abror NAZAROV,
Qarshi harbiy prokurorining katta yordamchisi**

✓ OGOLLIK

GAZDAN ZAHARLANISH VA BIRINCHI YORDAM

Nimalarni bilishimiz kerak?



IS GAZIDAN ZAHARLANISHNING UMUMIY BELGILARI

Bosh miya tizimida: uyquga tortish, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, hushini yo'qotish;

ko'rish tizimida: ko'z oldining orong'ilashishi;

eshitish tizimida: eshitish qobiliyatining pasayishi;

teri qismida: terlash kuchayishi;

nafas olish tizimida: nafas olishning og'irlashishi, yo'tal;

yurak qismida: puls va AB ortishi;

mushaklar tizimida: tremor (qaltirash).

QANDAY HOLATLARDA IS GAZIDAN ZAHARLANISH XAVFI YUQORI BO'LADI?

Shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarida;

avtoulovlar turargohlarida;

yangi bo'yagan va shamollatilmagan xonalarda;

uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda;

pechka bilan isitiladigan uylar, hammomlar, dam olish palatkalarida yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.

Bundan tashqari, hozirda savdo do'konlarida sotilayotgan, gazda ishlaydigan har xil turdag'i gaz uskunalarini, jumladan Eron davlati ishlab chiqarilgan "kamin" gaz uskunasi chiroyli, ixcham ko'rinishli, isitish mavsumida ishlatiq, keyin boshqa joyga olib qo'sya bo'ladiqan qulayliklarga egadir. Biroq ushbu gaz uskunasi boshqa davlatda ishlab chiqarilgani sabab uni o'rnatish va foydalanishga doir texnik pasport o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilingagan. Buning oqibatida, undan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari bilan tanishish imkon bo'lmaydi. Mazkur gaz uskunasi o'zboshimchalik bilan, mutaxassisning ko'satmasisiz, qurilish me'yorlari talablarini buzgan holatda o'rnatilmoqda. Natijada esa insonlar is gazidan zaharlanib, vafot etmoqda.

TABIYY GAZDAN FOYDALANISHDA NIMALAR TAQIQLANADI?

O'zboshimchalik bilan uyni gazlashtirish, gaz asbobi o'mini almashtirish, uni yangilash va tuzatish;

gaz asboblari o'rnatilgan xonalar rejasini o'zgartirish;

dudburon va shamollatish tizimlarini o'zgartirish;

xavfsizlik va sozlash avtomatikasini uzib yo'qish;

maktabgacha yoshdag'i bolalar, shuningdek o'z harakatlarini nazorat qila olmaydigan shaxslarning gaz asboblaridan foydalanishi;

gaz va gaz asboblaridan boshqa maqsadlarda foydalanish;

gaz asboblari o'rnatilgan xonada uplash va dam olish.

SUYULTIRILGAN GAZDAN FOYDALANISHDA NIMALAR TAQIQLANADI?

Bo'sh va suyultirilgan gazli ballonlarni xona hamda yerto'lalarda saqlash;

gazlashtirilgan xonaga 50/55 litr sig'imiли ballondan bittadan ortiq yoki 27 litrli ballondan ikkitadan ortiq qo'yish;

ballonlarni qizishdan saqlaydigan to'siq o'rnatilgan bo'lsa, ballon bilan isitish asbobining oralig'i 0,5 metrgacha qisqartirilishi mumkin, ballon bilan to'siqning orasi esa 10 santimetrdan kam bo'imasligi kerak;

ballonlar bilan o't yoqish eshigining oralig'i 2 metrdan oz bo'imasligi lozim;

xonaga o'rnatilgan ballonlar almashtirilayotganda elektr yoritkichlarni yoqib-o'chirish, ochiq olovdan, elektr isitish asboblari va isitish pechkalaridan foydalanish;

ballonlarni mutaxassisiz, o'zboshimchalik bilan almashtirish.

GAZDAN ZAHARLANGANDA BIRINCHI YORDAM QANDAY KO'RSATILADI?

Barcha holatdagi og'ir zaharlanishlarda zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirish zarur.

Shifokor yetib kelgunga qadar quyidagilarni amalga oshirish kerak:

a) jabrlanuvchini zudlik bilan gazlangan hududdan toza havoga olib chiqish kerak;

b) jabrlanuvchining qo'l va oyoqlarini ko'tarilgan holatda yotqizish;

c) nafas olishiga xalaqit beruvchi barcha narsalarni yig'ishтирish (*tugmalarni yechib, yonarni ochish, kamarni bo'shatish va boshqalar*);

d) jabrlanuvchining uxlab qolmasligini nazorat qilish. Jabrlanuvchini yurgizish taqilganadi;

e) jabrlanuvchi nafas olmayotgan bo'lsa, unga toza havoda yoki havosi yaxshi aylanadigan xonada sun'iy nafas oldirishni boshlash lozim;

f) nashatir spirtini hidlatish;

g) hushiga kelgan vaqtida yiqilib, jarohatlanmasligi uchun choralar ko'rish;

h) jabrlanuvchining holati yaxshi bo'lsa, issiq choy yoki qahva ichirish;

i) kislород yostig'i yordamida kislород berish.

Mayor Ahmad ORIPOV

IS GAZI NIMA?

Is gazi (*uglerod oksidi*) – rangsiz, ta'msiz, hidsiz zaharli gaz. Kimyoviy formulasi – CO₂. U yer yuzida energiyaning jadal ishlatalishidan yuzaga keluvchi, tabiatda eng ko'p tarqalgan zaharovchi gazlardan biridir.

Qazib olinadigan yoqilg'ilarining to'liq yonmasligi is gazining bosh manbayi hisoblanadi. U asosan ko'mir, tabiiy gaz va boshqa yonilg'ilarining to'liq yonmasligi sabab yuzaga keladi. Nafas olinuvchi havo tarkibida 0,1 foiz is gazining bo'lishi o'lim holatiga olib kelishi mumkin!

Is gazi organizmga tushganda u qon tarkibidagi gemoglobin va kislород tashuvchi eritrotsitlarni o'zaro bog'lab, kislороднинг tana bo'ylab harakatlanishini cheklaydi. Natijada inson hushini yo'qotadi.



O'ZNI YUKSALTIRISH – YURTNI YUKSALTIRISH

O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkilotining
Qoraqalpog'iston Respublikasi
kengashi tasarrufidagi Amudaryo
tumani o'quv sport-texnika klubida
yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish,
ularni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi
tarbiyalash ishlariiga alohida
e'tibor qaratilmoqda.



Xususan, klub jamoasi tomonidan ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantrish, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini oshirish borasidagi ishlar shular jumlasidandir.

– Bu borada "Vatanparvarlik – oliv maqsadim!" shiori ostida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda sport musobaqalari o'tkazilayotganligi yoshlарimizni yanada ruhlantirmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Azizbek Ismailov. – Ayniqsa, tumanimizdagи davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'ibotlarini olib borish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Albatta, bunday hamkorlik natijasida yoshlар qalbida harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantirilmoqda. Chunki ularning ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish tashkilotimizning muhim vazifalaridan biridir.

Yaqinda mana shunday ezgu ishlarimizning uzyiy davomi sifatida ma'naviy-ma'rifiy va sport

tadbiri o'tkazildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariqa jalb qilishdir.

Barcha tashkil etilayotgan va o'tkazilayotgan tadbirlar samaradorligini oshirishga ayniqsa "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilganligining 32 yilligi arafasida yana ham keng e'tibor qaratilmogda.

Ayni paytda klubda ommaviy kasbdagi ko'plab texnik mutaxassislar tayyorlab kelinmoqda. O'z navbatida, buning uchun klubda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Birgina joriy yilning o'tgan davri mobaynida 250 nafar "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlandi. Shuningdek, "Yoshlar daftari" dagi 50 nafar kam ta'minlangan oila farzandlari ham imtiyoz asosida haydovchilikning "BC" toifasi o'quv kurslarini muvaffaqiyatli bitirib chiodi.

Bundan tashqari, amudaryolik yosh sportchilar hayo miltiq'idan o'q otish, avtoralli

bo'yicha tuman va Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida o'tkazilgan musobaqaqlarda faol qatnashib, umumjamoa hisobida faxrli o'rirlarni egallab kelmoqda.

Albatta, sport bilan muntazam shug'ullanishda shart-sharoitlarning, turli seksiya va to'garaklarning ishlab turishi ham muhim omil bo'lmoqda. "Havo miltig"idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Avtoralli", "Motokross" kabi seksiyalarda 50 nafardan ortiq yosh muntazam shug'ullanib keladi.

Xulosa o'rniда аytish mumkinki,
"Vatanparvar" tashkiloti umumta'lim
maktablarida tuman hokimligi, mudofaa
ishlari, xalq ta'limi, IIB JXX YHX bo'linmasi
hamda Yoshlar ishlari agentligi bo'limlari
bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazib
kelayotgani ertamiz davomchilarida harbiy-
vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda
muhim ahamiyat kasb etmoqda.



KEMAMODEL

Sharaf bilan qaytish

Chexiya Respublikasi Yablones-nad-Nisou shahrida sportning kemamodel turi bo'yicha jahon championati o'tkazildi. 20 dan ortiq davlatning 150 dan ziyod vakili ishtirok etgan ushbu musobaqada sportchilar o'zlarini yasagan kema modellari va ularning suvda harakatlanish imkoniyatlarini namoyish etdi.



Quvonarlisi, championatda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat O'zbekiston milliy terma jamoasi mamlakatimiz sha'nini munosib himoya qilib, 3 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalga sazovor bo'ldi.

Jumladan, shaxsiy hisobda bo'lib o'tgan bahislarda "Vatanparvar" tashkiloti sportchilari quyidagi natijalarga erishdi:

1. Davronbek Ortiboyev: oltin va kumush medallar (*Andijon v.*).

2. Shahridoda Muhammadaminova: oltin va kumush medallar (*Andijon v.*).

3. Nail Xakimzanov: oltin va bronza medallar (*Andijon v.*).

4. Marat Xakimzanov: bronza medal (*Andijon v.*).

5. Shavkat Ismatillayev: bronza medal (*Toshkent sh.*).

Yurtimizga yuqori natijalar bilan qaytgan sportchilarni Toshkent xalqaro aeroportida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov kutib oldi. Uchrashev chog'ida milliy terma jamoa a'zolari samimiy qutlandi va ularga tashkilotning esdalik sovg'alarini topshirildi.

RAKETAMODEL

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan Buxoro shahrida sportning raketamodel turi bo'yicha "Ipak yo'li kubogi" xalqaro musobaqasi va O'zbekiston ochiq kubogi o'tkazildi.

Xalqaro musobaqaga mezbonlik



Musobaqlarda Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari milliy terma jamoalarining a'zolari o'zlarini yasagan raketamodellari va ularning ochiq osmonda parvoz qilish imkoniyatlarini namoyish etdi.

O'zbekiston ochiq kubogining shaxsiy hisobda bo'lib o'tgan bahislarda sportchilar quyidagi o'rnlarni egalladi:

"S-4-A" sinfida:

- 1-o'rin: Feruz Bahodirov (*Buxoro v.*).
- 2-o'rin: Sergey Miller (*Qoraqalpog'iston*).
- 3-o'rin: Denis Muromsev (*Rossiya*).

"S-6-A" sinfida:

- 1-o'rin: Denis Muromsev (*Rossiya*).
- 2-o'rin: Aleksandra Bakiyeva (*Samarqand v.*).
- 3-o'rin: Ziyovuddin Iskandarov (*Toshkent sh.*).

"S-8-D" sinfida:

- 1-o'rin: Yuriy Filchukov (*Qozog'iston*).
- 2-o'rin: Valeriy Vardanyan (*Farg'ona v.*).
- 3-o'rin: Akmaljon Abidov (*Andijon v.*).

"S-7" sinfida:

- 1-o'rin: Najmiddin Zaylidinov (*Namangan v.*).
- 2-o'rin: Nuriddin Zaylidinov (*Namangan v.*).
- 3-o'rin: Denis Muromsev (*Rossiya*).

"S-9-D" sinfida:

- 1-o'rin: Rustamjon Nazarmuxamedov (*Qirg'iziston*).
- 2-o'rin: Denis Muromsev (*Rossiya*).
- 3-o'rin: Ravshan Nurmurodov (*Buxoro v.*).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin: Samarqand viloyati.
 - 2-o'rin: Buxoro viloyati.
 - 3-o'rin: Namangan viloyati.
- "Ipak yo'li kubogi" xalqaro musobaqasida quyidagi davlatlarning terma jamoalarini yuqori o'rnlarni qo'lga kiritdi:
- 1-o'rin: Rossiya Federatsiyasi;
 - 2-o'rin: O'zbekiston Respublikasi;
 - 3-o'rin: Qirg'iziston Respublikasi.
- G'olib va sovrindorlar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

MA'NAVIYAT

Keksa avlod tajribasi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tarassurifidagi Sergeli tumani o'quv sport-texnika klubida "Uch avlod uchrashev" tadbirini bo'lib o'tdi.



Mehnat faxriylari va 300-sonli umumta'lum maktabidagi "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik harakati otryadi a'zolari ishtirok etgan uchrashev mavzusi asosan vatanparvarlik va harbiy xizmatga hurmat tuyg'ulari xususida bo'ldi.

Bevosita muloqot chog'ida faxriylar yoshlarga o'z hayotlarida bo'lib o'tgan qiziqarli voqealar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, nihoyat, nuroniylig paytida ko'rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida so'zlab berdilar va inson har qanday holatda ham o'z Vatanining sodiq farzandi bo'lib qolishi zarurligini uqtirdilar. Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tomonidan aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli ishlarni e'tirof etib, bunda tashkilotning yosh xodimlari va sportchilarining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Uchrashev qiziqarli savol-javoblar bilan o'tdi. Tadbir so'ngida mehnat faxriylari va yoshlar o'ttasida sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha musobaqlar tashkil etilib, g'oliblar tashkilotning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



KELAJAGIMIZ EGALARI

"Vatan tayanchi" a'zolariga ko'krak nishonlari topshirildi

Qarshi shahrida joylashgan harbiy qismga biriktirilgan 22-umumta'lum maktabida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolarining tantanali "Va'da berish" marosimi bo'lib o'tdi.

2022-yil 2-mart kuni "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilingandi. Bu yurtimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining mutlaqo yangicha yo'nalishi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tizimli shakli hisoblanadi.

Qarorda davlat umumta'lum maktablarida ta'lim olayotgan 10-11-sinf o'quvchilari orasidan vatanparvar, eng intizomli va bilimli, tashabbuskor bo'lgan 20 nafar yoshni saralab olish orqali

"Vatan tayanchi" otryadlarini tashkil etish belgilangan.

Marosimda Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati vakillari, faxriylar va yoshlarning ota-onalari ishtirok etdi.

Maktab maydonida o'tkazilgan "Va'da berish" marosimida o'nadan ortiq otryad a'zosiga "Vatan tayanchi" ko'krak nishoni va guvohnomalar ham topshirildi.

Tadbirda so'zga chiqqan faxriylar "Vatan tayanchi" harakatiga qabul qilingan

o'smirlarga tantanali va'daning mohiyati, otryad a'zosi zimmasiga yuklatiladigan mas'uliyat va javobgarlik, Vatanga sadoqat va fidoyilik bo'yicha gapirdi.

Shuningdek, Zarafshon shahrida joylashgan harbiy qismalarning birida ham shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli barcha umumta'lum maktabalarning "Vatan tayanchi" otryadlariga a'zo bo'lgan 10-11-sinf o'quvchilarining tantanali "Va'da berish" marosimi o'tkazildi.

O'z muxbirimiz



Sportchilar MUNOSIB E'TIROF ETILDI

Xabaringiz bor, 23-sentabr – 8-oktabr kunlari Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilgan XIX Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 71 ta medalni qo'lga kiritib, 45 ga yaqin davlat orasida beshinchini o'rinni egalladi. E'tiborli jihat, Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari – Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sportchilari 6 ta oltin, 5 ta kumush va 8 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.



Mudofaa vazirligi Sport markazi tashkil etilganligining 30 yilligi hamda xalqaro musobaqlarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarimizni taqdirlashga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sifatida qayta tashkil etilgan mazkur dargohda faoliyat yuritayotgan

murabbiy va sportchilar xalqaro arenalarda yurtimiz va Mudofaa vazirligi sharafini munosib himoya qilyapti.

Tantanali tadbirda mudofaa vaziri o'rinosari polkovnik Alisher Norboyev, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi bosh kotibi Oybek Kasimov, O'zbekiston Respublikasi o'q otish federatsiyasi raisi Oybek Norinboyev,

O'zbekiston qo'l jangi federatsiyasi raisi birinchi o'rinosari Baxtiyor Mirzaqulov va boshqalar ishtirok etdi.

Mudofaa vaziri buyrug'i bilan o'z kasbining fidoyilar bo'lgan murabbiylar va sportchilar ko'krak nishonlari va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

I. NURALIYEV



MUASSIS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otobek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqziq qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatinning kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5615
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 285 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyundan chiqa boshlagan.

Nashr ko'satkichi: 114.
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.